

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

B.V.SHAMAHMUDOVA

XOR FANLARINI  
O'QITISH  
MÅTODIKASI

Musiqa oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma

\* \* \*

Ӣ ӮӮӮ ӮӮӮ  
Ӣ ӮӮӮ ӮӮӮ ӮӮӮ  
ӮӮӮ ӮӮӮ ӮӮӮ

ӮӮӮ ӮӮӮ ӮӮӮ  
ӮӮӮ ӮӮӮ ӮӮӮ

«Musiqa» nashriyoti  
Toshkent  
2012

85.314  
Sh21

Shamahmudova B.V.

Xor fanlarini o'qitish metodikasi: musiqa oliv ta'lif muassasalari uchun o'quv qo'llanma/ B.V.Shamahmudova; O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika metodika va axborot markazi, O'zbekiston davlat konservatoriysi.  
– Toshkent: Musiqa, 2012. 160 b.

KBK 85.314

UDK: 372.878

Maxsus muharrir:

San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent –  
S.B.QOSIMXO'JAYEVA

Taqrizchilar:

O'zDK professori – N.A.BAHRITDINOVA  
O'zDK professori – N.S.SHARAFIEVA

«Xor fanlarini o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanmasi «Akademik xor dirijorligi» ixtisosligining O'zbekiston davlat konservatoriysi xor dirijorligi bo'limining talabalariga mo'ljallangan va oliv o'quv yurtlarining davlat ta'lif standartlariga muvofiq ravishda va bakalavrлarni tayyorlash «Xor fanlarini o'qitish metodikasi» dasturi asosida yaratilgan.

Uning maqsadi konservatoriyaning xor dirijor talabalariga o'rta ta'lif muassasalarda maxsus fanlarini asosiy metodlarni egallashda yordam berish.

O'quv qo'llanmada nazariy va amaliy ma'lumotlar mayjud va 3 kurs bakalavriat talabalarga muljallangan bo'lib, boshqa musiqiy oliv ta'lif muassasalarga tavsija etilishi mumkin.

Unda maxsus xor dirijorligiga oid tarbiyaviy masalalar va maxsus fanlarni talabalarga kasbiy tayyorlarlikda ahamiyatli bo'lganligiga qaratiladi. Kelajak pedagogik faoliyatida ular an'anavy o'qitish metodlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi ta'lif sohasidagi muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan hozirgi zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanish tatbiq etiladi.

\* \* \*

Учебное пособие «Методика преподавания хоровых дисциплин» предназначено для студентов Государственной консерватории Узбекистана по специальности «Дирижирование академическим хором» на основании учебного плана и требований программы «Методика преподавания хоровых дисциплин» подготовки бакалавров и соответствует государственному образовательному стандарту.

Целью его является помочь студентам дирижёрско-хоровых отделений консерватории овладеть основными методами ведения специальных предметов в средних образовательных учреждениях.

Содержит теоретический и практический материал и предназначается бакалаврам 3-го года обучения дирижёрско-хорового отделения, может быть рекомендовано для использования в других высших музыкальных образовательных учреждениях.

В пособии рассматриваются вопросы специального дирижёрско-хорового воспитания и значение специальных дисциплин в профессиональной подготовке студентов. Применение ими в будущей педагогической деятельности современных педагогических методов и технологий наряду с традиционными методами преподавания является одним из приоритетных направлений образования в Узбекистане.

© «Musiqa» nashriyoti, 2012.  
© B.V.Shamahmudova, 2012.

ISBN 978-9943-307-59-9

---

---

## KIRISH

1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qabul qilgan «Ta’lim va kadrlar tayyorlash milliy dasturi» xususidagi qaror, madaniyatning turli sohalari shu jumladan, xor san’ati sohasida xor jamoasi rahbari va o‘qituvchiga zarur bo‘lgan yuksak g‘oyaviy sifatlar, teran kasbiy malakali mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirishni taqozo etdi.

Mazkur qarorning muvaffaqiyatli echimi o‘qitishning muntazam ravishdagi sifat afzalligi va samaradorligi, o‘quv jarayonining optimalligi; o‘qitishning barcha shakllari va uslubidagi ta’lim va tarbiyaviy funksiyalarga majmuaviy yondashuvni talab etdi. Zamonaviy natijalardan nafaqat tor doiradagi ixtisoslik sohasi va musiqiy pedagogikada, balki etika, estetika, psixologiya, shuningdek, san’atning turdosh turlarida ham foydalanish mumkin.

Mustaqillik yillarda uzuksiz ta’lim tizimni isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asoslari yaratildi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning amalga oshirish ishlari hamma ta’lim muassasalarga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi. Kollej, akademik litseylar va oliy ta’lim jarayonida davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlar asosida tashkil qilinib kelmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim tizimidagi asosiy maqsad komil inson va etuk malakali, raqobatdosh mutaxassislar tayyorlash, deb belgilanadi. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish ko‘lamini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarini joriy etilishga erishish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Metodika – fan sifatida ko‘plab mashhur pedagog-xormeysterlar ishlarida o‘z aksini topgan..

Metodika (yunoncha – methodos so‘zidan olingan bo‘lib, tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot degan ma’nolarni anglatadi) – 1)-aniq vazifalar

echimiga tobe bo‘lgan borliqni amaliy va nazariy jihatdan o‘zlashtirish usullarining yig‘indisi; 2)- pedagogika ilmining tarmog‘i – alohida biror bir fanni- o‘qitishning qoida va uslublarini bayon etadi.

O‘qitish metodikasi deganda ta’limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo‘llari, usul va uslublari tushuniladi. «Har bir o‘quv faniga tegishli bo‘lgan o‘qitishning ilmiy asoslangan jarayonini qurish uchta fundamental muammo echimini talab etadi:

o‘qitishdan maqsad – fan nima uchun o‘qitiladi;

uning mazmuni – qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun nimani o‘rgatish zarur;

o‘qitish metodi – ya’ni, qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda, belgilangan mazmunni o‘zlashtirish uchun o‘qitish jarayonini qanday tashkillashtirish kerak.»<sup>1</sup>

Maxsus turkum mashg‘ulotlardagi o‘qitish va tarbiyaning shakllar va uslublari, uning tashkillashtirilishi, mazmuni xususidagi asosiy bilimlarni, xor fanlarini o‘qituvchi kvalifikatsiyasini aniqlab beruvchi, konservatorining xor dirijorligi bo‘limining ixtisoslashtirilgan fanlaridan biri «Xor fanlarini o‘qitish metodikasi» kursi beradi. U talabalarni o‘rtta mahsus ta’lim muassasalar – kollej va akademik litseylarda amaliy va pedagogik faoliyat olib boruvchi pedagog qilib tayyorlaydi.

Kurs maqsadi – xor san’atining zamonaviy, o‘suvchan talablariga muvofiq holda mutaxassislarini kasbiy darajada tayyorlashni yuksaltirishga ta’sir ko‘rsatish va o‘qitish hamda tarbiya shakllari va uslublarini takomillashtirishdir.

Uning mazmuni – xor dirijorligi bo‘limi pedagogik faoliyatining serqirra turlarini o‘zida qamragan maxsus fanlarni o‘qitishning har xil uslublarini o‘rganish va o‘zlashtirish (ma’ruza mashg‘ulotlari, yakka tarzda o‘tadigan darslar, guruhli va amaliy); xor pedagogikasi va pedagogik ishlarning tashkiliy va uslubiy tamoyillari nazariy asoslarining serqirra bilimiga ega bo‘lish; xor san’ati etakchi arboblarining pedagogik tajribasini umumlashtirish; maxsus o‘quv-metodik va pedagogik adabiyotlar bilan tanishishdan iborat.

O‘rtta maxsus musiqa ta’lim muassasalarning xor dirijorligi bo‘limlarida o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning turli xil shakllari va uslublaridan foydalilanadi. Musiqa mashg‘ulotlarining o‘ziga xos turi bo‘lgan yakka tartibda (individual) o‘tiladigan shakllar ayniqsa

---

<sup>1</sup> Талызина Н.Ф. Задачи частных методик в высшей школе// Актуальные проблемы музыкальной педагогики: МежВУЗ. сб. тр. — М., 1977. Вып. 32.

keng qo'llaniladi. Dirijorlik, xor partitularini o'qilishi va xor aranjirovkasi fanlari individual shaklda o'qitiladi.

Jamoaviy shakllar ham o'quv jarayonida muayyan o'rinni egallaydi. Bular — xor sinfi, ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlardir. Ma'ruzaviy uslub bilan «Xorshunolik va xor bilan ishlash metodikasi», «Xor adabiyoti», va «Musiqiy tarbiyasi metodikasi» kabi fanlar olib boriladi. Bu fanlar xor san'ati mutuxassislarni kasbiy darajada tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayoning muvaffaqiyatli ko'rinishida tashkillashtirilishi, o'quv ishlarini to'g'ri rejalashtirishni uddalay olishga bog'liqdir. Yakka tartibda o'tiladigan fanlarni o'qitish o'quvchining shaxsiy rejasini bo'yicha amalgalashadi, ma'ruzaviy kurslarini o'qitish esa taqvim (kalendor) ish rejasini bo'yicha. O'qituvchi bu rejalarini o'quv dasturiga muvoqiq ravishda tuzadi.

«Xor fanlarini o'qitish metodikasi» kurs mashg'ulotlari ma'ruzalar va seminarlar tarzida o'tkaziladi, nazorat darslari ko'zda tutiladi.

O'quv dasturida mazkur fan uchun ajratilgan soatlar miqdorining chegaralanganligi, talabalarning katta hajmdagi mustaqil ishni amalgalashishlarini nazarda tutadi. Shu bois ham bataysil ishlab chiqilgan va to'laqonli yoritilgan maxsus adabiyotlardagi mavzularni o'tishda talabalarni tegishli qo'llanmalardan foydalanishga yo'naltirib, ma'ruzalarda ularni birmuncha qisqartirib bayon etish lozim. Kursning ma'ruzaviy qismida o'rganilayotgan fan bo'yicha asosiy bilimlarni uning nazariyasi va amaliyotini uzviy bog'lagan holda berish zarur.

Fanda amaliyot shakllaridan biri sanalgan seminar mashg'ulotlari muhim o'ringa ega bo'lib, ular talabalarni mustaqil fikrashga o'rgatadi; ma'ruzalarda bayon etilgan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlashga yordam berib, o'rganilayotgan kurs bo'yicha olingan bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Ular ma'lum darajada bilimlarni o'zlashtirish ustidan nazorat vazifasini o'taydi. Seminarlarda talabalarning fikrash qobiliyatini faollashtiruvchi muammoli mavzular, shuningdek, bataysil va e'tibor bilan ko'rib chiqishni talab etuvchi kam ishlangan metodik masalalar muhokama etiladi. Agar seminar mazmuni ma'ruza materialiga asoslansa, demak uning maqsadi — muayyan sohadagi ma'lumotlarni kengaytirish va chuqurlashtirishdir. Alovida mashg'ulotlarni metodik adabiyotlarni o'rganishga bag'ishlash lozim. Talabalarda o'zlarini o'qigan adabiyotni tanqidiy tahlil etish, mustaqil fikrash qobiliyatini tarbiyalash zarur. Mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli tarzda o'tkazishning asosiy sharti, taqdim etilgan

metodik ishlarning guruhdagi barcha talabalar tomonidan o‘rganilishidir. Seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish shakllari barcha talabalar ishtirok etadigan seminar-suhbat, seminar-munozara ko‘rinishida bo‘lishi yohud bir necha talabalarning kichik ma’ruzalar bilan chiiqishlar qilishlari hamda keyinchalik ular boshqa talabalar tomonidan muhokama etilishi va to‘ldirilishi mumkin.

Metodika kursini o‘rganishda talabalar tomonidan uy vazifalarini bajarilishi ham kiradi. Bu – amaliy ishlarni bajarish, ya’ni turli xil xor fanlarining shaxsiy va kalendar ish rejalarini tuzish, xor adabiyotlaridan misollar keltingan holda dirijorlik sxemalarni grafik tasvirlash, uslubiy adabiyotlarni konsept qilish, kontsertlarga taqriz yozish, xor asarlarini tahlil etib, ularga annotatsiyalar, referatlar yozish demakdir.

Talabaning fan materiallari ustida muntazam ravishda ishlashini og‘zaki va yozma tarzdagi nazorat mashg‘ulotlarini o‘tkazish yo‘li orqali tizimli ko‘rinishida tekshirib turilishi tavsya etiladi. Fanning o‘qitilishi yakunida esa o‘tilgan mavzular bo‘yicha og‘zaki tarzdagi sinov o‘tkaziladi; bunda talabaning – o‘qitishning qoida va uslublarini bayon etadi. uslubiy adabiyotni bilishi, uy vazifalarining bajarilish sifati, seminar mashg‘ulotlarida qatnashish darajasi, uning faolligi hisobga olinadi.

Talabalar bilimini yakuniy tekshirish sinov vaqtida amalga oshiriladi, unda nazariy savollarga javob berish va kurs davomida o‘rganilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalardan birini tahlil etish talab etildi. Reyting ballini qo‘yishda semestr davomida bajarilgan yozma topshiriqlarning sifati, shuningdek, seminar mashg‘ulotlarida faol qatnashganlik darajasi hisobga olinadi.

Video va audiotexnika bilan jihozlangan auditoriyaning metodik va texnik ta’mnoti, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tehnologiyalari – kompyuterlar, DVD, CD, Internet va boshqa o‘qitish sifatini oshirib, o‘quv materialini o‘rganish va o‘zlashtirishni tezlashtirishga yordam beradi.

Mazkur qo‘llanma endigina faoliyatini boshlagan pedagog-xormeysterlarga metodik ko‘mak sifatida tavsya etiladi, u o‘rta maxsus va oliy musiqa o‘quv yurtlarining xor dirijorligi bo‘limlarida o‘tiladigan maxsus xor fanlarining dasturlari bilan uzviy bog‘langandir.

---

---

## O'ZBÄKISTON RÄSPUBLIKASI VA MDH DAVLATLARI DA XOR TA'LIMINI TIZIMI VA UNING MAZMUNI

O'zbäkistonda xor dirijorligi ta'limini tashkillashtirish  
va rivojlantirish

O'zbek va ovro'po musiqa madaniyatlarining o'zaro ta'sir etish jarayoni Turkiston o'lkasining Rossiya qo'shilgan davridan boshlana-di (XIX asrning 60-70 yillari). «O'zbekistonda vokal va xor ijrochiligi-ning tarixi»<sup>2</sup> nomli o'quv qo'llanmada ta'kidlanganidek, havaskor musiqiy jamoalarning yuzaga kelishi bu davr uchun xos edi. Ular orasida xarbiy kapelmeyster V.Leysek tomonidan 1898 yilda tashkil etilgan «Lira» nomli xor jamoasi sezilarli rol o'ynadi. Bu jamoa tinglovchilar orasida nihoyatda ommalashib, havaskor musiqachilikni keng miqyosda rivojlantirishga turki bo'ldi. Gimnaziyalar, real o'quv yurti, O'qituvchilik seminariyasi, Kadet korpusining yoshlar xor jamoalari ham faol kontsert ishini olib bordilar. Mahalliy aholi hayot tarziga rus va chet el klassiklarning asarlari, musiqachilikning yangi shakllari kirib keldi. Xorlarni professional musiqachilardan V.Leysek, V.Sakovichlar boshqarib, ular O'zbekiston musiqa madaniyatida sezilarli iz qoldirdilar.

Tarixiy manbalarga ko'ra inqilobgacha bo'lgan Turkistonda musiqa va kuylash milliy maktablarda o'tilmagan, boisi shariat tomonidan ta'qiqlangan edi. Inqilobdan keyin 1917-yilda umumta'limning kiritilishi ko'p sonli maktablarning ochilishiga olib keldi. Umumta'lim maktablarida xor madaniyatini o'rgatish jarayoni murakkab kechdi. Xor kuylash o'zbek xalq ijodiyotining u qadar rivojlanmagan turi edi. San'atning yangi turiga nisbatan muhabbat uyg'otish juda muhim

---

<sup>2</sup> «История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане» Т. 1991. 64-б.

edi. Kuylash məktəb darsları qatoridan joy olğan bo'lsa-da, ammo uni boshqa fan o'qituvchilari olib borar edilar. Bolalar havaskorlik jamoalari rivojlana boshladı. 1918 yoldayoq Toshkentning bolalar maydonchalarida mashhur musiqachilar N.Mironov, A.Derfelen, S.Kuzmenkolar xor mashg'ulotlarini olib bordilar. Məktəb-teatr jamoalari keng tarqaldi. Rahbarlar orasida professional xormeysterlardan V.Sakovich va S.Vasilevlar bor edi. 1919-yilda o'zbek məktəbları bazasında 60ta o'g'il boladan iborat bunday jamoa ilk bor tashkil etildi. Uni bolalar estetik tarbiyasining faol targ'ibotchisi Ali Ardobus Ibrohimov tuzgan edi. Bu jamoada uchta sektsiya bor edi: badiiy so'z, xor va raqs sektsiyalari. Keyinchalik u mana shunday jamoalardan o'n ikkitasini tashkil etdi. Ammo məktəblarda kuylashni o'rgatish hamon muammoligicha qolib, kasbiy savodga ega o'qituvchilar yo'q edi.

Xor kuylashni targ'ib etishda 1918-yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq konservatoriysi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Kelib chiqishi ovro'polik bo'lgan ko'plab musiqachilar turli xil havskorlik to'garaklari va jamoalarmi tuzib, ularni o'qitishga katta g'ayrat bilan kirishdilar. Xor madaniyatini targ'ib etishda Turkiston xalq konservatoriyasining xor jamoasi rahbari, ajoyib musiqachi va tajribali xormeyster V.Sakovich ko'plab ishlar qildi. Uning jamoasi izchil kontsert va madaniy-ma'rifiy faoliyatini olib borar edi. Xalq konservatoriysi turli tumanlarida o'zining bir necha filiallariga ega edi. Ulardan biri Temiryo'l texnikumi nomini va temiryo'lchilar hamda ularning farzandlari uchun madaniy-ma'rifat ishlari markaziga aylandi.

Musiqiy ta'lim va madaniy-ma'rifiy muassaslarini bunyod etish, milliy kompozitorlar va ijrochi kadrlar tayyorlash, ko'povozli musiqa targ'ibotini tashkil etish zarur edi.

Bu vazifalarni hal etishda V.A.Uspenskiy, E.E.Romanovskaya, N.N.Mironov, R.M.Glier, G.A.Mushel, S.N.Vasilenko, A.F.Kozlovskiy va b. kabi musiqa san'ati arboblari katta yordam berdilar.

1922-yilda Turkiston xalq konservatoriysi musiqa texnikumi (keyinchalik Hamza nomidagi musiqa bilim yurti) sifatida qayta tashkillashtirildi; ammo ularda xor-dirijorligi bo'limi yo'q edi. Samarqand, Buxoro, Namangan va boshqa shaharlarda ham ochilgan musiqiy məktəb va texnikumlari ochildi.

1936-yilda Toshkent Davlat konservatoriysi ochildi. Ayni vaqtida bir guruh iste'dodli o'zbek yoshlari Moskva va Leningrad konservatoriyalarida tahsil ola boshladı (bunda asosan kompozitorlar,

xonandalar va simfonik orkestr dirijorlari o‘qishardi). O‘sha vaqtda milliy xormeysterlar tayyorlash masalasi ko‘tarilmagan va bu ixtisoslikka na Toshkent konservatoriyasida, na markaziy oliygochlар studiyalarida saboq berilgan.

Shu bois xor san’ati doirasini kengaytirish, uning ommalashuviga, havaskorlikdan kasbiy darajagacha rivojlantirishning iloji yo‘q edi. Ko‘p ovozli xor madaniyatini o‘zlashtirish bilan (kapellaning 1936yilda yaratilishi va 1937-yilgacha davom etishi, o‘zbek musiqali dramasi va operalarining sahnalashtirilishi, ommaviy qo‘schiqlarning paydo bo‘lishi) xor jamoalarining malakali rahbarlari va xor xonanda-artistlarini tayyorlash dolzarb bo‘lib qoldi.

Konservatoriyaada musiqiy-pedagogik (keyinchalik xor dirijorligi) fakulteti ochildi, musiqa savodiga asos bo‘luchchi xor kuylash negizidagi umumkonservatoriya xor sinflari mayjud edi, ularga o‘sha vaqtda katta ahamiyat berilar edi. Xor qo‘schiqlari shunday kuchga ega ediki, ular omma ishtiyoyqini yuksaltirib, odamlarni bir jamoaga birlashtirardi. Bu an‘ana hozirgi kungacha saqlanib, ayni vaqtda xor kuylash ommaviy tarbiya vositalarida muhim o‘rin egallaydi («Qo‘sish bayrami», «O‘zbekiston – Vatanim manim» va b. tanlovlар bunga misoldir).

1941-yilda konservatoriyaning o‘quv ishlari bo‘yicha direktor muovini E.Zvereva tomonidan xor dirijorligi bo‘limini ochish masalasi qo‘yildi; unga birinchi yagona abiturient qiz E.Ruxalis-Kenzer qabul qilindi (E.M.Kenzer keyinchalik xor dirijorligi kafedrasining professor v.b. bo‘lgan). U o‘sha vaqtdayoq xor jamoalari bilan ishslash tajribasiga ega edi («Ko‘k ko‘ylak» to‘garagi, Olimlar Uyi, umumta‘lim maktablari). Urush boshlanishi bilan Toshkentga okkupatsiya hududlarida qolgan konservatoriylar evakuatsiya qilingan ediki, bu holat mutaxassislar sonining kengayishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekistonda xor dirijorlik ta‘limini tiklash jarayonida Leningrad konservatoriysi professori A.A.Egorovning hissasi katta bo‘ldi. U o‘quv jarayonini tashkillashtirishda fidokorona mehnat qildi. 1943 yilda musiqiy-pedagogik fakulteti xor dirijorligi fakultetiga aylantirildi. Shu vaqtдан boshlab O‘zbekistonda xor dirijorligi ta‘limining tizimi tashkil etildi.

Ajoyib xormeyster, kafedrani 1944-yildan boshqargan M.N.Semyonov (1936-yildan Toshkent Davlat konservatoriysi nazariy-kompozitorlik fakulteti dotsenti, umumkonservatoriya xori rahbari), A.A.Egorov bilan birgalikda, o‘qitishning uslubiy va pedagogika vazifalari hamda maxsus xor fanlarining mazmuni va hajmini belgilab berishdi. Kafedrada E.Zvereva, A.Mixaylov, N.Prisyolkov o‘qituvchi bo‘lib

ishlashgan. Birinchi bitiruvchilari A.A.Egorovning o'quvchilari E.Kenzer, A.Pavlinova, L.Shamshin bo'lishdi.

Respublikada xor ta'limini tashkillashtirish va xor madaniyatini rivojlantirishda Toshkent konservatoriysi xor dirijorligi kafedrasining hissasi kattadir. Bunga O'zbekistonida barcha professional xorlarni, bolalar va havaskorlik jamoalarini boshqarayotgan, musiqa oliv va o'rta ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli ta'lim berayotgan bitiruvchilarning faoliyati bunga dalildir.

65 yildan ziyod vaqt davomida xor dirijorligi kafedrasи mingdan ortiq xor dirijorlari va xor fanlari o'qituvchilarini tayyorlab berdi. Kafedrani 1944-1955 yillar mobaynida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor M.N.Semyonov, 1955-1976 yy. ajoyiib pedagog-xormeyster, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, professor V.I.Knyazyatov, 1977-1978 yy. esa birinchi milliy kadrlardan dotsent N.I.Qoziev boshqarishdi. 1979-1987yy.ga kelib kafedraga taniqli pedagog-metodist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor v.b. E.A.Gudkova, 1987-1994yy. esa ajoyib xormeyster professor v.b. A.B.Vasilyevlar mudirlilik qilishdi. 1994-2007 yy. kafedrani yetakchi professor N.S.Sharafiyeva boshqardi, ayni vaqtda, ko'p yillar mobaynida VXDFning dekani bo'lib faoliyat yuritgan, tajribali professor L.X.Jumaeva boshqarmoqda. Xor dirijorligi kafedrasи – Respublikadagi xor hayoti barcha qirralarining markazi hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi kadrlarning yangi avlodini yuksak umumiyligi va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faoliylikka ega etib shakllantirishga qaratilgan. Xor dirijorligi ta'limini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida turli yo'nalishdagi yuqori malakali kadrlarni qabul qilish va tayyorlash masalalari yangi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikada xor dirijorligi ta'limi rivojlanishning ahamiyatli darajasiga erishdi va zamonaviy bosqichda bo'lajak pedagog-xormeysterlarni o'qitishning muayyan tizimi joriy etildi.

O'zbekistonda xor dirijorligi ta'lim tizimi uch bosqichdan iborat – boshlang'ich, o'rta va oliv. Dastlabki musiqiy savodini o'quvchilar musiqiy makkablarda olishadi. O'rta maxsus ma'lumotni musiqa va musikiy-pedagogik kollejlar hamda san'at kollejlarning xor dirijorligi bo'limlarida olishadi. U yerda umumta'lim makkablarining musiqa fani uchun o'qituvchilar, bolalar va havaskorlik xorlari rahbarlari tayyorlanadi. Bunday o'quv yurtlari qatoriga shuningdek, V.A.Uspenskiy va R.M.Glier nomidagi RMMAL hamda O'zbekiston

davlat konservatoriysi huzuridagi akademik litsey faoliyatini kiritish mumkin.

Xormeysterlar oliv ma'lumotni O'zDKning xor dirijorligi bo'limida, pedagogika institutilarida va O'zbekiston San'at va Madaniyat institutida oladilar. Konservatoriya bu asnoda yuqori malakali xormeyster-pedagog kadrlarni tayyorlasa, pedagogik institutlari – umumta'lim maktablari uchun o'qituvchilar, O'zSMITi – havaskorlik jamoalari rahbarlarini tayyorlaydi.

MDH davlatlarida zamонави xor ta'limi ikki yo'naliшda ish olib boriladi:

vokal-xor – xor xonandası-ansamblchilarни tayyorlash;  
xor dirijorligi – xor san'atining ko'pqirrali mutaxassislari: xormeysterlar, pedagoglar, metodistlarni tayyorlash.

Kadrlar tayyorlash masalasining echilishi bilan bog'liq tarzda Rossiyaning inqilobgacha bo'lgan birinchi o'quv yurtlari misolida tarixga nazar tashlasak, unda kadrlarni tayyorlash o'zining yuksak professional darajada bo'lganligi bilan ajralib turganligini e'tirof etish joizdir.

Pravoslav e'tiqodi X asrda rasman tan olingach, qadimiy madaniyatning markaziy marosimlaridan biri ibodat qilish bo'lib qoladi. Din xizmatchilaridan tashqari, knyaz Vladimir Yunonistondan Kievgaga o'zi bilan birga xonanda-o'qituvchilar (demestik yoki domestiklar)ni olib keladi. U taklif qilgan xonandalar cherkov xorlari va xonandalar maktablarini tashkil etishadi. Monastir va knyaz saroylari ta'lim markazi bo'lib qoldi.

XV asrdayoq Moskva, Pskov va boshqa shaharlarda xonandalik maktablari ko'plab tashkil etilgan edi. Bunday maktablar orasida Novgorod maktablari katta shuhrat qozongan edi. Ular ko'plab xorlar uchun xonandalar etkazib berar, cherkov xorlarini etuk ustalarini tayyorlar edilar. XV asrning ikkinchi yarmida Rossiyada birinchi professional rus xori tashkil etilib, keyinchalik u Pyotr I tomonidan Saroy xori deya o'zgartirildi va 1763-yilda Imperator Saroyi xonandalar kapellasi degan nom oldi (Sankt Peterburg).

XVI asrning oxirida Moskvada patriarch xonanda dyaklar xori vujudga keldi, keyinchalik u, mashhur Sinodal xori sifatida faoliyat yuritgan.

XVII asr oxiriga kelib rus cherkov xorida professional musiqa va vokal-xor ta'limini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratildi. Professional xorlardan – Saroy xonandalar kapellasi va Sinodal xor nafaqat Rossiya balki uning tashqarisida, shuningdek,

opera xonandalari va xonanda o'qituvchilarni tayyorlashda ulkan rol o'yndi.

XVIII asrda – Saroy xorining faol opera-kontsert faoliyati, krepoftnoylik opera teatrлари va xonandalar kapellalarning yuksalgan vaqtı.

XIX asr boshida Saroy kapellasining Peterburg o'quv yurtlaridagi xor kuylashga o'qitish uslubiyoti va tashkillashtirishga bo'lgan ta'siri, kuchaydi. Bu borada G.Lomakin shiddatli pedagogik faoliyat yuritib Paj kadet korpusi, Huquqshunoslik bilim yurti va harbiy-o'quv yurtlarida va boshqa muassalarda xor jamoalarini tashkil etdi.

Bu yillarda havaskorlar jamoalariga rahbarlik qilish metodik tajribalari ortib bordi. Barcha universitetlarda musiqa sinflari ochildi. Har yili o'tkaziladigan tantanali hodisalarga to'g'ri keladigan, musiqa sinflarida tahsil oluvchi o'quvchilarning, shu jumladan o'quv xorining ko'chalardagi chiqishlari olqishlanar edi.

Rossiyaning musiqa hayotida ro'y bergan jamoaviy rivojlanish, musiqachi va xor arboblarining oldiga o'z faoliyatlarini tubdan o'zgartirish, birinchi navbatda hayotga ta'lif va tarbiyaning yangi uslublarini joriy etish kabi talablarni qo'ydi. Bu davrda xor ijrochiligining eng dolzarb muammosi – xor dirijorlarining umumiyligi va maxsus ta'limi sifatini oshirish, xonanda kadrlarni tayyorlashdan iborat edi. XIX asr o'rталарига kelib Rossiyada bo'lajak xor o'qituvchilari va regentlarni tayyorlovchi ikkita professional musiqa bilim yurtlari tashkil etildi. Bular Peterburgdagи Regent sinflari, keyinchalik Regentlik bilim yurti va cherkov xonishga moslashgan Moskva Sinodal bilim yurtidir. Regent sinflarining yaratilishi, professional darajadagi tayyorgarlik xor rahbarlariga bo'lgan ehtiyoj belgisi hisoblanadi. Ammo bu vaqtda regentlar tarbiyasi uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy qurilmaning yo'qligi, musiqiy-nazariy bilim va amaliy malakalar xususidagi tasavvurining noaniqligi, ularning aksariyatida tayyorgarlik darajasining o'ta past darajada bo'lganini ko'rsatadi. Bunga sabab nomukammal tizim va o'qish haqining qimmatligi edi. Moddiy jihatdan kam ta'minlangan o'quvchilar barcha uchta kursni o'qish imkoniga ega bo'lolmay «oliy» attestat o'rniga «kichikrog'i» bilan chegaralanishga majbur edilar. Ko'plab cherkov xorlari past darajali musiqa savodiga ega bo'lgan regentlar qo'lida edi. Regentlarni maxsus tayyorlash muammosi – buyuk musiqa arboblarining teran o'quv-uslubiy ishlovni ta'limga yuqtirishlari natijasida hal bo'ldi. Shunday qilib, 1883 yilda N.A.Rimskiy-Korsakov tomonidan tuzilgan «Saroy kapellasi huzuridagi regent sinflari dasturi» nashr etildi. 1889 yilda esa Sinodal

bilim yurti o‘qituvchisi S.Smolenskiy yangi o‘quv rejasini qayta ishlashga kirishdi. Dasturlar o‘zining mukammal darajada o‘ylangan mazmuni, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi, ijroviy, ijodkorlik (kompozitorlik), musiqiy-pedagogik tayyorlovlarinining majmuaviyligi bilan ajralib turgan.

O‘qitish jarayonida tarbiyaniluvchilarini musiqiy qobiliyatlariga ko‘ra ajratib yondoshish haqida fikr, musiqiy pedagogikaning yutug‘i bo‘lib, N.A.Rimskiy—Korsakov tomonidan professional yo‘naltirilgan tizimni ishlab chiqishga asos bo‘ldi. Shu tizim natijalaridan biri cholg‘u sinflarni ochilishi bo‘ldi.

Xususan xor ta’limining uch bosqichi: tayyorlov sinfi, regent sinfi orkestr sinfi; o‘quvchi ixtisosligi: regent, musiqa nazariyasi o‘qituvchisi, kompozitor. Professional tayyorgarlikning yuksak darajasi joriy etildi:

o‘quvchini keyinchalik ham o‘z ustida ishlash uchun mustahkam ilmiy asos olган олий о‘quv yurtlari vazifalarini to‘g‘ri tushunish. O‘quv jarayonida yuqori malakali kadrlar tomonidan jamlangan etakchi o‘qitish uslublari, o‘quv fanlarining rang-barang majmuasidan foydalananish;

o‘qitishning maqsadli yo‘nalishi — yuqori malakali regentni tarbiyalash. Musiqiy nazariy fanlar (ayniqsa solfedjio)ni har tomonlama chuqur o‘rganish;

xor dirijorlarini tayyorlash — bevosita xorda ishtirok etish, pedagogik amaliyot, mashg‘ulotlar o‘tkazish, dirijorlik va regentlik usullarini egallashdan iboratdir.

Pedagogik jarayonining muhim holati – ta’limning amaliyot bilan uzviy bog‘liqligidadir. 1918 yilda Xonandalar kapellasi va Sinodal bilim yurti Xalq xor akademiyalariga aylantirildi. Moskva xor akademiyasi Moskva konservatoriyasiga qo‘silib, xor tayyorlov bo‘limiga asos soldi. 1925 yilga kelib Leningrad konservatoriysi huzurida instruktorlik-pedagogik (keyinchalik xor dirijorligi) fakulteti ochildi. Moskva va Leningrad, keyinchalik Sankt Peterburg konservatoriyalarda xor dirijorligi fakultetlarda etuk mutaxassislar etishtiriladi. Bu o‘quv yurtlarining ko‘plab tarbiyalanuvchilar turli yillarda yirik musiqachilar bo‘lishdi (P.Chesnokov, N.Danilin, M.Klimov, G.Dmitrevskiy, A.Egorov, A.Aleksandrov, A.Sveshnikov, K.Pigrov, G.Sviridov, R.Shedrin, A.Yurlov, V.Minin va ko‘plab boshq.). 1991-yilda Moskvada A.V.Sveshnikov nomidagi o‘g‘il bolalar xor bilim yurti asosida birinchi vokal-xor o‘quv muassasa – xor san’ati Akademiyasi yaratildi. 1992-yildan unga qizlar qabul qilinadi. O‘qitish

tizimi uchta bosqichdan iborat: maktab-bilim yurt – oliy yurt. Bitiruvchilar ikkita ixtisoslikdan diplom olishadi: «dirijorlik» va «vokal san’ati». Unga 2009yilda V.S.Popov nomi berildi.

O’quv jarayoni va ta’limning ilmiy asoslarini takomillashuvi hozirgi zamон ta’lim tizimining muhim vazifalardan birи. Zamonaviy xor pedagogikasini asosiy qirralari: majmuaviylik, maqsad sari yo‘naluvchanlik, ta’lim ixtisoslashuvi – yuqori kurslarda talaba (o‘quvchi)ning qobiliyatiga muvofiq tarzda ijrochilik va pedagogik faoliyatga taqsimlanish.

Respublika sharoitida xor madaniyatini rivojlanishiga o‘g‘il bolalar va o‘smlarni xor san’ati muhitiga jalb etish, shuningdek, ansambl-xonanda tayyorlaydigan maxsus bo‘limlar tashkil etilishi muhim vazifalardan.

#### Savollar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qaerda va qachon qabul qilingan?
2. O‘zbekistonda xor dirijorligi ta’limining tashkillashtirilish va rivojlantirilishi xususida so‘zlab bering?
3. O‘zbekistonda xor dirijorligi ta’lim tizimi nimalardan tashkil topgan?
4. Xor dirijorligi maktabining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

#### Adabiyotlar

1. Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998.
2. Асафьев Б О хоровом искусстве.Л.,1980.
3. Елисеева В. Обучение хормейстеров в дореволюционной России. В кн: Вопросы русской и советской хоровой культуры. М. 1970 с.42-65.
4. Организация и развитие дирижёрско-хорового образования. В кн.: История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане. Т., 1991, с.71,72,81-94.
5. Ильин В. – Очерки истории русской хоровой культуры. М., 1985,с.188-194
6. Казачков С. О дирижёрско-хоровой педагогике. В кн.: Музыкальное исполнительство. Вып.6. М.,1970 с.120-143.
7. Ro‘ziev Sh. Xorshunoslik . Т., 1987. 31-36 б.

## O'QUV ISHLARINI RÂJALASHTIRISH VA O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRGAN BILIMLARNI NAZORAT QILISH

O'quv jarayonini muvaffaqiyatli tashkillashtirish, o'quv ishlarini to'g'ri rejalashtirishga bog'liq. Bir yo'nalishdagi barcha o'quv yurtlari uchun aniq ixtisoslikning normativ hujjati bo'lmish umumiy o'quv rejasи mavjud, xususan: «Xor dirijorligi» mutaxassisligi bo'yicha. Unda o'quv faoliyatining turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganish izchilligi va soatlar hajmi belgilangan.

Yillik soatlar soni quyidagicha taqsimlanadi:

- a) xor sinfi va dirijorlik mashg'ulotlari uchun hisob bo'yicha yiliga 40 hafta;
- b) amaliyotning barcha turlari uchun hisobdan yiliga 34 o'quv haftasi;
- v) qolgan barcha fanlar uchun hisobdan yiliga 39 haftasi I va II kurslarda, 38-III kursda.

Fakultativ mashg'ulotlar o'quv rejasiga kiritilgan bo'lsa majburiy hisoblanadi; u holda talaba uchun haftasiga o'quv yuklamasi rejalshtiriladi.

Yakka tartibdagi (individual) fanlarni o'qitish, shaxsiy ish rejasи asosida amalga oshiriladi.

Dirijorlik, xor partitularini o'qish, aranjirovka fanlari individual ish rejalarini tuzish tamoyillari:

- o'quv dasturlariga muvofiq holda;
- uning g'oyaviy-badiiy darajasining tavsifi;
- repertuar (ijro dasturi) tanlash;
- miqdor hajmi;
- o'quvchini shaxsiy sifatlari va umumiy tayyorgarligini hisobga olish.

Xor fanlaring ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish taqvim (kalendor) rejasи bo'yicha amalga oshiriladi. Bu rejalarни o'qituvchi o'quv dasturiga muvofiq holda tuzadi. Agar fanni o'rganish bir yilga mo'ljallangan bo'lsa, u xolda dastur materialini yarim yildan butun muddatga taqsimlanadi, ammo taqvim rejasи faqat joriy semestrga qilib tuziladi.

Xor fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida mavzuiy (tematik) rejalar mayjud bo'lib, ularda har bir o'rganilgan mavzuga ajratilgan soatlar soni ko'rsatilgan. Bu taqvim rejalarini tuzishni birmuncha engillashtiradi. Bunda o'qituvchi har bir o'tiladigan mavzuning oyi va kunini belgilashi kerak bo'ladi. Agar mavzu katta bo'lib, bir necha darslarni egallasa, u holda material hajmini ularning har biriga teng qilib taqsimlash kerak. Bundan tashqari umumiy hisobdan seminar

va nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish uchun ham soatlар ajratish kerak. Zero ular mavzuiy rejada nazarda tutilmagandir. Bu soatlarni qo'shimcha vaqtida o'tkazishga ruxsat berilmaydi, boisi bu talabaning haftalik yuklamasini oshirib yuboradi. O'qituvchi mazkur mashg'ulotlarni o'tkazish joyi va vaqtini taqvimiyl reja bo'yicha usluban to'g'ri belgilay olishi kerak. Eslatish joizki, dastur taxminiy mavzu rejasini taqdim etadi. Bu esa zarurat tug'ilganda har bir mavzuga ajratilgan soatlар sonini ularning umumiyl sonidan chetga chiqmagan holda, o'quv dasturida ko'rsatilishi bo'yicha o'zgartirish mumkin.

Taqvimiyl rejalarini tuzish tamoyillari:

o'quv dasturlarining mavzuiy rejasiga muvofiq bo'lisl;

o'quv materiallarini semestrlar bo'yicha to'g'ri taqsimlash;

seminar, amaliyot va nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish vaqt va mazmunini belgilash.

O'qitish samarasini oshirishda o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish o'ta muhimdir. Bu o'ziga xos aks aloqa, ya'ni bunda o'quvchidan o'qituvchiga ma'lumot boradi. Nazorat o'quvchi bilimining sifatini belgilashga yordam beradi.

Nazorat shakllari: davomiy va yakuniy. Davomiy nazorat – o'quvchining bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqaradi. O'quvchini yaxshiroq bilib olishga, uning qobiliyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. U shuning uchun ham zarurki, o'quvchini tashkillashtiradi, muntazam ravishda shug'ullanishga majbur etadi; ma'lumotlarni imtihon reytinggacha «to'planib» turishiga yo'l qo'ymaydi. Davomiy nazorat shakllari turli-tuman – og'zaki va yozma so'rov. Ulardan biri o'tilgan mavzular bo'yicha tizimli so'rov bo'lib, har bir darsda (yaxshisi dars boshlanishida) unga 10 daqiqqa vaqt ajratiladi. Agar mavzu avvalgi ma'ruza mazmuni bilan bog'liq bo'limasa va idrok etish uchun mushkul bo'lsa, so'rnvi darsning oxiriga qoldirish mumkin. Ammo so'rnvig bu turi butun fan bo'yicha olingen ilm xususida to'liq tasavvur uyg'otmaydi. Uni nazorat mashg'ulotlari to'ldiradi. Ya'ni, bir yoki ikki soat davomida o'quvchining bilimini yozma va og'zaki shakkarda tekshirish mumkin. Bunday mashg'ulotlar sanasi va shakli xususida o'quvchilar ikki hafta oldin oghlantiriladi; savollar va tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati beriladi. Og'zaki shaklda o'tkazilgan nazoratning afzal tomonlari bor. Chunki bunda o'quvchilar o'z o'rtoqlarining qo'llashi va o'qituvchining izohlarini eshitib, birgalikda mazkur savolni aniqlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Yozma mashg'ulotlar katta foyda beradi. Yozma ish savollarga ko'proq yoki kamroq aniq javoblarni

berish imkonini beradi: bular musiqiy asarlar tahlili, mavzu yoki fan bo‘limi bayoni. Uni o‘tkazish shakli turlicha: bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga alohida topshiriq beradi va tanlash uchun bir necha mavzuni taqdim etadi.

So‘nggi vaqtarda o‘zida ham savol ham javobni jamlagan testlardan foydalanish keng tarqaldi. Nazoratning bu turi ko‘p vaqt olmaydi. Ammo o‘quvchilar bilimini yuzaga chiqarib, ular tomonidan qiziqish bilan bajariladi.

Nazorat mashg‘ulotlarining har qanday turi ham o‘qituvchi tomonidan baholanishi kerak: yozma ishda esa nafaqat mazmun sifati balki ishni rasmiylashtirilishi ham nazarda tutilishi kerak. Bilimlarining baholanishi o‘quvchi uchun katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o‘qituvchi baho mezonlarini ishlab chiqishi, unda yuqori talabchanlik va xolislik asosiy ko‘rsatkich bo‘lishi kerak.

Yakuniy nazorat – reyting attestatsiyalarida amalga oshirilib, unda nafaqat o‘quvchining bilimi, balki o‘qitish uslubidagi yutuq va kamchiliklari, o‘qituvchining ish sifati ham yuzaga chiqadi. Attestatsiyaga tayyorlanish jarayonida o‘quvchilar o‘z bilimlarini tafakkur etib, chuqurlashtiradilar. Bunda o‘quvchiga mazkur ishning to‘g‘ri uslubini ko‘rsatish zarur; ya’ni, ularga vaqtidan to‘g‘ri va unumli foydalanishni o‘rgatish; katta kuch talab etuvchi murakkab mavzularni ko‘rsatish lozim.

Reyting nazorat davri o‘quvchidan katta ruhiy va hissiy yukni talab etadi; shuning uchun imtihonlarda sokin muhit va talabalarga nisbatan samimiy munosabat hukmron bo‘lishi kerak. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchining bilim va malakalari sifatiga alohida e’tibor berib, uni xolisona baholashi kerak. Bu ayniqsa davlat attestatsiyasi (imtihon)ga taalluqli bo‘lib, ma’lumki, unda ruhiy zo‘riqish nihoyatda kuchlidir. Imtihon o‘qituvchida ham o‘quvchida ham ishning katta va murakkab bosqichi yakunidan qoniqish hissini uyg‘otishi kerak.

#### Savollar va amally topshiriq

1. O‘quv rejasi nima?
2. Dirijorlik, xor partituralarini o‘qish va aranjirovka fanlari bo‘yicha shaxsiy (individual ) ish rejasini tuzish tamoyillari qanday?
3. Ma’ruzaviy fanlar bo‘yicha taqvim (kalender) rejasini tuzish tamoyillari qanday?
4. Taqvim rejasining mavzuiy rejadan farqi nimada?
5. O‘rta maxsus o‘quv dasturlari va o‘quv rejalarini bilan tanishuv.

## Adabiyotlar

1. Е.А.Гудкова. Методика преподавания хоровых дисциплин (лекционные курсы). Т.1987.
2. К.А.Ольхов. Вопросы теории дирижёрской техники и обучения хоровых дирижёров. Л.,1979.

TA'LIMNING YAKKA TARTIBDA O'TKAZILADIGAN SHAKLLARI.  
«Dirijorlik» kursini o'qitish mātodikasi

Ta'limga va tarbiyaning yakka tartibda o'tkaziladigan shakllari – musiqiy (xor dirijorligi) pedagogikaning o'ziga xos muhimligidir. Xor dirijorligi, xor partituralarini o'qilishi, xor aranjirovkasi yakka mashg'ulotlar tarzida o'qitiladi.

«Dirijorlik» kursi musiqi kollejlari, akademik litseylar, shuningdek musiqa oliy o'quv yurtlari xor dirijorligi bo'limlarining o'quv rejasidagi maxsus fanlar majmuasidagi etakchi fani hisoblanadi. Fan umumiyligi, g'oyaviy-tarbiyaviy va musiqiy vazifalarga muvofiq holda o'quvchilarni musiqa o'qituvchisi, xor dirijori sifatida mustaqil faoliyat yuritishlari uchun tayyorlashga qodir.

Kursning maqsadi – dirijorlikning turli xil texnik usullarini qo'llay oluvchi, bu usullar vositasida ijro etiluvchi asarning g'oyaviy-badiiy timsolini ochib bera oluvchi yuqori malakali xor dirijorini tarbiyalashdir.

Kursning vazifasi – xorga dirijorlik qilish texnikasini egallah; xor bilan ishlash uslubi va amaliy malakalariga ega bo'lish; musiqiy-nazariy bilimlar va umummadaniy dunyoqarashni kengaytirish va chuqurlashtirish; eshitish qobiliyatini o'stirish; xor repertuarini o'rganish; iroda va tashkilotchilik sifatlarini tarbiyalash; xor asarlarinii tahlil etish malakalarini egallah.

O'quv ishlarining asosiy turlari – bu musiqaning ohang-tinglov jihatlarini o'zlashtirish, xor ovozlari vaakkordlarini kuylash, partituranı fortepianoda ijro etish, yozma annotatsiyalar, musiqiy-nazariy, vokal-xor va ijro tahlili, jo'rnavoz fortepianoda ijro etayotgan xor asarlariga dirijorlik qilishdir.

Dirijorlik kursining mazmuni, dirijorning bo'lajak kasbiy faoliyati tuzilmasidan kelib chiqib belgilanadi.

Mutaxassislik o'qituvchisi o'quvchining asosiy tarbiyachisidir, uning nufuzi qoida bo'yicha yuqori. Aynan undan o'quvchi asosiy kasbiy

bilimni oladi va u o‘quvchida musiqaga nisbatan haqiqiy hurmat va muhabbatni uyg‘ota olishi; musiqaga bo‘lgan o‘z munosabatini quruq gaplar bilan emas, balki vijdanan yondashgan kundalik mehnati bilan isbotlashi zarur. O‘qituvchi o‘quvchisining boshqa fanlarni qay darajada o‘zlashtirayotganini bilishi lozim. O‘quvchiga ta’sir etish kuchi, o‘qituvchining o‘z shogirdi bilan qay darajada til topisha olgani, uning ishonchi va hurmatini qozongani bilan belgilanadi.

Dirijorlik fani o‘qituvchisi o‘quvchining bevosita rahbari sifatida yosh mutaxassasilarning g‘oyaviy tarbiyasi va tabiatidagi ijtimoiy qirralarni shakllantirishga katta ahamiyat beradi. U o‘quvchining o‘quv davomati, hulqini va ma’naviy qiyofasini nazorat qildi; undagi ma’suliyat hissi, ongli intizom va qiyinchiliklarni engib o‘tish fazilatlarini mustahkamlaydi. O‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘z ishini eng sara mumtoz xor musiqasi namunalarini va zamonaviy xor asarlaridan iborat qilib, ortib boruvchi murakkabliklarni hisobga olgan holda, o‘quv dasturi talablariga rioya etib tuzadi. Dirijorlik mashg‘ulotlari asosida musiqiy asarlarni bataysil o‘rganish yotadi. Bu go‘yo xor bilan ishslash uchun amaliy tayyorgarlik va asarlarning fortepiano jo‘rnavozligida ijro qilish demakdir.

Dirijorlik, uzining tarixiy rivojlanishi jarayonida, shuningdek, kompozitorlik ijodiyotining tobora o‘zgarib borishi, xamda cholg‘u va xor musiqasi ijrosida yangi tamoyillarining paydo bo‘lishi munosabati bilan dirijorlik, o‘zining so‘nggi zamonaviy shakli – jest va mimika (qo‘l va yuz ishoralariga)ga ega bo‘lgunga qadar bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. «...Ibtidoiy odamlarni tabiiy va sodda badan harakatlari, qadimgi zamon va o‘rtasr davridagi xeyronomiysi, ritmik ansambl bashqarish uchun turli vositalar izlash va XVI asrda erga «takni urish» uchun battutani paydo bo‘lishi, XVII – XVIII asrlarda general-bas va klavesin oldida dirijorlik va nihoyat, uzining yuqori darajadagi imo-ishoralar tiliga xos bo‘lgan yangi uslub yuzaga kelishi – bular dirijorlik san‘atining asosiy bosqichlari<sup>3</sup>.

Dirijorlik – bu murakkab jismoniy-asabiy jarayon bo‘lib, musiqa ijrochiligining eng qiyin turi hisoblanadi. Barcha dirijorlarning faoliyat va vazifa shartlari, ya’ni kasbiy, o‘quv, maktab, cherkov, havaskorlik – juda turli, ammo ularning har birida bitta umumiylilik bor: dirijorlik qila olishi, o‘z ishini yaxshi bilishi, faqat mohir, madaniyatli musiqachi bo‘lib qolmay, balki maxsus dirijorlik ma’lumotlariga ega bo‘lishi lozim.

<sup>3</sup> Казачков С.А. «Дирижерский аппарат и его постановка» М., 1967. 15-б.

Dirijorning san'ati uning asarni musiqiy jihatdan qanday talqin etishida ko'rindi. Bunda u o'zining badiiy fikrlarini jamoaga qo'l harakatlari, ifodaviy yuz mimikasi, shuningdek, mashg'ulotlar vaqtidagi tushuntiruvchi so'zlar orqali etkazadi.

Xor dirijorlarga qo'yilgan talablar: yaxshi vokal-xor eshitish qobiliyati, ritm sezgisi va musiqiy xotiraga ega bo'lishi, vokal san'atining asosiy qonunlarini bilishi, ovoz egasi bo'lishi, dirijorlik harakatlarini egallashi, fortepianoda chalishi va nota varaqdan yaxshi o'qiy olishi, musiqaning turli uslub va janrlarni yaxshi bilishi o'ta zarur.

Musiqiy qobiliyatlardan tashqari dirijorda kuchli iroda va tashkilotchilik layoqati ham bo'lishi kerak; u o'z ishining tashabbuskorি bo'lishi lozim. Shu bois xor-dirijorligi bo'limiga kiruvchilar uchun birinchi talab – bu xor ixtisosligiga qiziqish va xor san'atiga bo'lgan ishtiyoqdir.

Xor dirijorligi bo'limiga kiruvchilar eng jiddiy tanlov va sinovlardan o'tishlari lozim bo'ladi; buning natijasida esa qobiliyat darajasi, kasbiy yaroqlik, umumiy o'sish darajalari aniqlanadi.

Dirijorlikni o'qitish metodikasi barcha xususiy metodlar singari didaktikaning beshta asosiy tamoyiliga quriladi: bu bilimning o'zlashtirishning mustahkamligi, ongli ravishdaligi, ta'limning tizimliligi, tushunarligi. Ushbu tamoyillar har bir kursdagi qat'iy tizimli dasturli talablar (repertuar va texnik usullar)da ham o'z aksini topadi; ya'ni darslarni tuzilishida ham, xor asarlari ustida ishslash uslublarida ham.

Dirijorlik – xorshunoslik, yakkaxonandalik mashg'ulotlari, maxsus fortepiano, solfedjio, musiqa nazariyasi va garmoniya, aranjirovka, musiqa adabiyoti, musiqa asarlar tahlili va boshqa shu kabi fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu fanlarni o'zlashtirish, xor asarlarning mukammal ijrosini mustaqil ravishda teran ifodalash uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarini shakllantiradi.

Dirijorlikdan ta'lim berish muhim rol o'qitishni yo'naltirishiga qaratiladi. Dirijorlik usullari va harakatlarini o'rganish jarayonini kelajakda xor bilan ishslash uchun maqsadga muvofiqliligi bilan oqlash zarurdir. O'quvchi sinf va uy ishida o'zi ishlaydigan xorni hayolan tasavvur qilishi, ichki kuylash malakalari va xor jarangini eshita olishini rivojlantirishi lozim. Buning uchun o'qituvchi o'z shogirdlariga imkon qadar ko'proq xor kontsertlariga borish va audio yozuvlar tinglashni tavsiya etadi.

Dirijorlikka o'qitish boshlang'ich bosqichi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichning bosh maqsadi – dirijorlik texnikasining asosiy unsurlarini egallashdan iborat. U shunday poydevorni tashkil etadiki,

dirijor unga badiiy vazifalar echimini topishda tayanadi; zero aynan texnika zarur harakat erkinligini berib, dirijorning jamoa bilan bo‘ladi-gan muloqotida asosiy vosita sanaladi.

Dastlabki dirijorlikka o‘qitilishda texnikaga katta ahamiyat berish va rivojlantirish kerak. Shunga suyanib dirijor o‘z harakatlari orqali ijrochilar bilan erkin muloqotda bo‘ladi. O‘quvchilarga boshidan texnikani egallash jarayoni murakkab, uzoq muddatni talab qilinishligini tushuntirish kerak. U o‘z ustida mustaqil ishlash natijasida yuzaga chiqadi. Faqat tabiiy qobiliyatlarga suyanib qolmay, balki tajribada to‘g‘ri ijroga erishish uchun izchil mehnat qilish kerak, ya’ni mustaqil ravishda puxta o‘ylangan, davomiy mashq qilish bilangina amalga oshirish orqali erishiladi erishiladi.

Mushaklar erkinligi – dirijorlik texnikasini egallashning asosiy shartlaridandir. Erkin dirijorlik harakatlar, birinchi navbatda mushaklar terangligini bo‘sashtirish va dam olish bilan almashtirib turish mahoratga bog‘liq.

Boshlang‘ich bosqich o‘qituvchining doimiy nazoratidagi shaxsiy ko‘rsatmalarini amalga oshirish uslubiga asoslanadi. Amaliy mashg‘ulotlarni dirijorlik apparatining holatini to‘g‘ri qo‘yishidan boshlash zarur. Unga qo‘llar, bosh (yuz, ko‘z), gavda(ko‘krak, elkalar), oyoqlar. Bunda albatta o‘quvchining jismoniy rivojlanishini hisobga olish lozim. Ularga eng foydali deb jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish tavsija qilinadi.

Dirijor apparatini o‘rnatish ustida ishlash metodi, ya’ni mushaklar erkinligi, egiluvchanlik va tabiiylik uslubiy adabiyotlarda bat afsil va keng qamrovda yoritilgan. Uslubiy adabiyotlarda dirijorlik texnikasining alohida unsurlarini o‘zlashtirish uchun mashqlar tavsija etiladi. Mashqlarning aksariyati dirijorlik pedagogikasida keng qo‘llaniladi.

Maxsus mashqlarning ahamiyati juda katta – ular o‘quvchi tomonidan ongli ravishda, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘rgatilsa, dirijorlik harakatlarini tashkillashtirishga, qo‘llarning ifodaviyligi va egiluvchanligiga erishishga, usul sur’atini his etishni rivojlantirishga, texnikaning turli xil elementlarini egallashga qodir bo‘ladi. Bir mucha e’tiborga sazovor va foydali mashqlar K.B.Ptitsa, K.A.Olxov, S.A.Kazachkov singari mashhur pedagog xor-dirijorlari, shuningdek, M.M.Bagrinovskiy, I.Musin, N.A.Malko kabi simfoniyachi-dirijorlar kitoblarida bat afsil yoritilgan.

Boshlang‘ich bosqichdagi dirijorlik texnikasining turli xil unsurlari ustida ishlash metodi – ularni o‘rganishning izchilligi, davomiyligi

bilan belgilanadi. Dirijorlik apparatining barcha qirralari va dirijorning asosiy holatini o‘quvchi tomonidan batafsil o‘rganilgach, taktlashga, qo‘l harakatlarini takt sxemalarida o‘rganishga o‘tish mumkin. Bundan avval taktlash va dirijorlik o‘rtasidagi farqlarni aniqlab olish kerak. «Vaznli taktlash – bu qo‘l harakati bilan vazn hissalarini takt chizmalariga muvofiq holda hisoblashdir.»<sup>4</sup> Taktlash – bu hali dirijorlik qilish emas, zero u badiiylik elementlaridan mustasnodir; ammo dirijorlik tayananadigan asos aynan u bo‘ladi.

Dirijorlik sxemalarini o‘rganish oddiy o‘lchovlardan boshlanadi. Ko‘p o‘qituvchilar o‘rganishni uch hissalidan boshlashni tavsiya etadilar, boisi u boshqa chizmalarga nisbatan hissalarini aniq sur’atli, shuningdek uning kuchli hissasi yaqqol ko‘rsatilgan va muayyan pastga yo‘naltirilgan. Undan keyin ikki hissali, so‘ngra esa to‘rt xissali sxemalar o‘rganiladi. Sxemalarning grafik tasviri, o‘zlashtirishning eng afzal uslubidir.

Auftakt tushunchasi – oldingi imo-ishora, ogohlantirish, intilish harakati bo‘lib, dirijorlikda katta ahamiyatga egadir. Boshlash va nafas olish lahzalari, yakunlash, fermatolar, shtrixlar, dinamika usullari.

Muttasil murakkablashuvchi dirijorlik texnikasini turli xil elementlari metodikasi ustida ishlash. Tadrijiylik va izchillik bilan dirijorlik usullarini dastur talablariga muvofiq o‘rganish va ularni anglab mustahkamlash.

Xor a kapella partituralari ustida ishlash metodi, dirijor-xormeyster o‘qitishda ustun bo‘lувчи о‘ringa egadir. Bunga turli vokal-texnik vazifalari, nafas, tovushlarni bir vaqtida boshlanishi, nyuanslar, talaffuz, shuningdek barmoqlar texnikasini ta’sirchanlik imkoniyatlari ustida ish olib borish.

Tovush yo‘nalishning o‘ziga xosligi (legato, non legato, staccato) ustida ishlab, dirijorlik harakatlarining malakasini orttirish metodikasining ahamiyati, ayniqsa xor dirijorlikda eng zarur bo‘lgan-ifodaviy, ravonli, kuychan qo‘l harakatini egallash. Badiiy ijrochilikning turli xil usullarni o‘qitish metodikasi biroz kechroq bosqichda o‘tiladi

Xor asarlari ustida ishlashni o‘rganish metodlari – bu partituranı fortepianova ijro etish, ovozlarni, akkordlarni kuylash, og‘zaki va yozma tahvil: ya‘ni, musiqiy-nazariy, vokal-xor va ijrochilik(tahlil mazmuni, savollar doirasi o‘quvchilarni musiqiy tayyorgarligi bilan aniqlanadi).

Dirijorlik darslarning tuzilishiga oid ularning izchilligi, vazifalar, mavzu, nota matnlari bilan ajralib tursalarda, ularning tarkibida umumiy metodik qoidalar mavjud. Bular darsni tashkillashtirish va olib borish

<sup>4</sup> К.Б.Птица. О хоровом дирижировании. («Работа с хором»). 241-б.

metodlari, uning faoliyatini turliligi (dirijorlikning o‘zi, partituranı fortepianova chalish, ovozlarni kuylash, og‘zaki suhbatlar va hokazo). Darsda notanish asarlarni notadan o‘qishga alohida e’tibor berish kerak. Xor asarlari yozilgan fonogramma, disklardan foydalanish, bu shakl o‘quvchilarda real yangrayotgan xor va uning badiiy ijrochilik muhimliklari tasavvurini uyg‘otish uchun kerak bo‘ladi.

Semestr boshida o‘qituvchi har bir talaba (o‘quvchi) uchun shaxsiy ish rejasi tuzishi va bu reja qo‘shiq va xor asarlari hamda talabaga berilgan tavsifnomadan iborat bo‘lishi lozim. Bu tavsifnomada dirijorlik bilan endi shug‘ullanishni boshlagan talabaning dirijorlik qobiliyati, tayyorgarlik darajasi, kasbiy yo‘nalmasi albatta qayd etilishi kerak. Keyingi kurslar tavsifnomasida o‘quvchining rivojlanishi, uning mashg‘ulotlarga bo‘lgan munosabati, shaxsiy rejani bajarishi alohida ko‘rsatilib, muvaffaqiyati va kamchiliklari qayd etib qo‘yiladi. Shaxsiy rejaga kiritilgan asarlar soni dasturda ko‘rsatilgan minimumdan kam bo‘lmasligi kerak.

Har bir dirijorlik bo‘yicha reja o‘ta shaxsiy xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchining muvaffaqiyati-yu, kamchiliklarini hisobga olingan bo‘lishi, uning dirijorlik apparati va temperamentining muhimliklari, eng asosiysi – aniq uslubiy yo‘nalmaga ega ekanligini ko‘rsatilishi kerak. Reja mavjud dasturga qat’iy amal qilishi kerak. Kursning barcha texnik malakalarini rejada aks ettirish va ularni izchil o‘sib borayotgan qiyinchiliklar tamoyiliga asoslangan holda berib borish kerak. To‘g‘ri reja oldinga siljitishga qodir bo‘lsa, noto‘g‘risi – rivojlanishni to‘xtatib qo‘yadi.

Shaxsiy rejada ko‘rsatilgan musiqiy repertuar, shu kurs dasturining barcha bo‘limlarini o‘zida qamragan, tobora murakkablashib boruvchi asarlardan iborat bo‘lishi kerak.

O‘quvchining musiqiy-xor dunyoqarashini kengaytirish maqsadida, shuningdek, kelajakdag‘i amaliy ishlar uchun zarur, tanish bo‘lgan xor asarlarini ko‘paytirish, ularni shaxsiy ish rejasiga kiritib, 1-2 asarni semestr davomida o‘quvchi bilan qisqacha dirijorlik tanishuvvi sifatida o‘tish kerak.

O‘quvchining shaxsiy ish rejasiga kiritilgan xor asarlariga talab – bu g‘oyaviy-badiiy qiymat, turli janr, uslub, mazmuni, xarakter, xor turlari va ko‘rinishlari har xilligi bo‘yicha va albatta dirijorlik usullariga monandligidir.

Har yarim yillikda reyting nazorati o‘tkaziladi. U ikki qismidan iborat: xor dasturini dirijorlik qilish va kollokvium (og‘zaki so‘rov-dirijorlik

qilingan asarlar haqida ma'lumot; musiqiy qism- a kapella xor partiturasini fortepianoda ijro etish, ovozlar vaakkordlarni kuylash va hokazo), annotatsiyalar yoki xor asarlarining tahlilini (qaysi kursda o'qishiga qarab) ko'rsatish. Kollokvium semestr o'rtasida o'tkazilishi mumkin.

Pedagog dirijorlik san'ati va dirijorlik ta'limiga oid adabiyot va dirijorlik sinflarida keng qo'llaniluvchi dirijorlik bo'yicha xrestomatiyalari va xor asarlari to'plamlarni ta'riflab beradi.

#### Savol va amaliy topshiriqlar

1. Dirijorlik nima va boshqa musiqa ijrochiligi turlaridan farqlana-digan tomoni?
2. «Dirijorlik» kursini maqsad va vazifalari?
3. Dirijorlik texnikasi tushunchasini ta'riflang.
4. Dirijorlik rivojining tarixiy bosqichlarini etib bering.
5. Taktlash bilan dirijorlikni farqi nimada?
6. Auftakt turlarini etib bering.
7. Dirijorlik apparati nimalardan iborat?
8. Dirijorlik mashqlarini bajarilishini maqsadi nimada?
9. O'rta maxsusus musiqa o'quv yurti I kurs o'quvchisi uchun dirijorlik bo'yicha bir yillik shaxsiy reja tuzish.
10. Dirijorlik sxemalarini chizmasini tasvirlash va misollari xor asarlaridan olinadi (murakkab razmerlarni hamma variantlari ko'rsatiladi).
11. Metodik adabiyotlarni konspektlash, dirijorlik bo'yicha xrestomatiyalarni va to'plamlarni o'rganish.

#### Adabiyotlar

1. Андреева Л. Методика преподавания хорового дирижирования. М., 1969.
2. Azimov K. O'zbekiston dirijorlari. Т., 2001.
3. Безбородова Л. Дирижирование. М., 1990.
4. Казачков С. Дирижёрский аппарат и его постановка. М., 1967.
5. Ольхов К. Вопросы теории дирижёрской техники и обучения хоровых дирижёров. Л., 1979.
6. Птица К. Очерки по технике дирижирования хором. М., 1948.
7. Сивизьянов А. Проблемы мышечной свободы дирижёра хора. М., 1984.

8. Ержемский Г.Л. Психология дирижирования. М., 1988.
9. Хакназаров З.В. О дирижировании. Т., 2011.
10. Shomahmudova B. Musiqa maktablarida xor dirijorligiga o'qitish uslubiyotining ayrim masalalari //Методические записки музыкаль-ной школы им.В.Успенского. Вып. 5 kitobida. Т., 1996.
11. Хрестоматия по дирижированию хором. Составители Е.Красотина, К.Рюмина, Ю.Левит. Вып. I—IV. М., 1969—1972.
12. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. Tuzuvchi N.I.Qoziyev. I—IV jildlar. Т., 1976—1986.

«Xor partitularini o'qilishi» kursini o'qitish metodikasi

O'rta maxsus musiqa o'quv yurtlarida «Xor dirijorligi» ixtisosligi bo'yicha «Xor partitularini o'qish» fani o'quvchilarni kasbyi jihatdan tayyorlashda uning tarkibiy qismi sanaladi. Maxsus turkumning asosiy fanlaridan bo'lgan bu kurs, o'quvchilarni xor partitularini fortepianoda o'qish malakasini rivojlantiradiki, bu kelajakdag'i amaliy faoliyat uchun juda zarurdir.

«Xor partitularini o'qish» kursining maqsadi o'quvchining musiqiy va umummadaniy dunyoqarashini kengaytirish, turli xil jo'rsiz va fortepiano jo'rлигida xor asarlarini o'rganish, notanish xor partitularini notadan o'qish malakasini rivojlantirish va turli fakturadagi xorlarni transpozitsiya qilish, o'quvchilarni xor asarlarini tanlay olishda, o'rganishda, tahlil etishda mustaqil ish olib borishlariga tayyorlashdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi – bu o'quvchida partitura mazmunini tezda tushunib etish, uni fortepianoda chalish hamda ko'povozli yaxlitlikni tashkil etuvchi ohang – kuy qirralari va barcha ovozlar ifodaviyligini ajratib ko'rsatish; shuningdek, musiqiy tafakkurni har tomonlama tarbiyalashdir.

«Xor partitularini o'qish» fanini o'rganish maxsus turkumning boshqa fanlari bilan o'zaro aloqada bo'lish asosida amalga oshiriladi. Bu fanlar xor san'ati musiqa ilmi va musiqa nazariyasi, pedagogika va psixologiya sohasida o'quvchilar diqqatini jamlab, bo'lajak xormeyster va dirijorlar, musiqa o'qituvchilarining ta'lim va tarbiyasi uchun muhimdir. Fanni o'rganish natijasida o'quvchilarda xor partitulari bilan ishlashda quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanishi kerak:

- xor asarlari yozuvining nazariy asoslarini bilish va ularning o'qilishi;
- o'rganilayotgan asarni o'qish va tahlil etish;
- nota varaqdan o'qish;
- o'rganilayotgan asarni fortepianoda ijro etish va xor ovozlarini kuylash;

– transpozitsiya qilish.

Har bir o'quvchi jo'rsiz asarni fortepianoda xor ovozlarini aniq eshittirib ifodali ijro etishi kerak: ya'ni bunda quyiluvchan, she'riy matn bilan bog'liq musiqiy iboralar, xor nafasi, xor ijrochiligining o'ziga xos muhimliklari ajratilib ko'rsatilishi lozim.

Rus xor san'atining mashhur arbobi N.M.Danilin xor partituralarini o'qish malakasining ahamiyatini quyidagi so'zlar bilan ifodalagan: «dirijor partituranı qanday chalsa, xor ham uning boshqaruvida shunday kuylaydi».

Xor partituralarini o'qish kursi hozirgi kunda musiqa kollejlarning xor dirijorligi bo'limlarida I va III kurslar (III-VI semestrlar)da o'tiladi, RMMALning xor dirijorligi bo'limlarida 7-sinfdan boshlab o'tiladi. O'quvchilar bilan ishslash musiqa kollejlari va va akademik litseylarning xor dirijorligi bo'limlari uchun «Xor partituralarini o'qish» fani bo'yicha tuzilgan dasturlar asosida olib boriladi. Ishning shakllari – o'qituvchi rahbarligidagi individual darslar va o'quvchilarning uy vazifalarini mustaqil ravishda tayyorlashlari. Sinf mashg'ulotlari o'quvchilar tomonidan tayyorlangan partituralarni ya'ni notadan o'qish, murakkab bo'lmagan partituralarni fortepianoda transpozitsiya qilish kabi vazifalarni tekshirishdan iborat.

Xor partituralarini o'qish fani bo'yicha shaxsiy ish rejasi har bir talabaning cholg'uni qanchalik o'zlashtirganiga qarab tuziladi. Bunda o'quvchi uning oldiga qo'yilgan vazifalarini aniq tasavvur eta olishi kerak. Har bir o'quvchi o'quv yili davomida 18-tadan kam bo'lmagan xor asarlarini o'rganishi kerak.

Shaxsiy ish rejasidan kompozitor-klassiklar (rus, g'arb) va O'zbekiston kompozitorlarining asarları, shuningdek qayta ishlangan xalq qo'shiqlari o'rın olgan bo'lishi kerak. Repertuarni tanlashda o'qituvchi «oddiydan murakkabgacha» tamoyilidan foydalanishi kerak.

Fanni amaliy jihatdan o'zlashtirish quyidagi natijalarni berishi kerak:

o'quvchilarda xor asarining amaldagi yaxlit, jarangini tafakkur ettirish bilan birga uning alohida qirralari, ya'ni mazmuni, tuzilishi, tabiyatini yoritishga qodir bo'lgan musiqiy-obrazli tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantrish;

o'qish jarayonida olingan partitura va xor bilan ishslash bilim va ko'nigmalarini amaliy ishlarga tatbiq etib, umumlashtira olishni rivojlantrish;

xor musiqasi, turli davr va uslublarga xos asarlar, o'zbek, rus va g'arb kompozitorlarining ijodi, xalq ijodining eng yaxshi namunalari bilan har tomonlama tanishuv.

Shaxsiy rejalarini tuzganda, pedagog dasturdagi talablarga rioya qilib va har bir o'quvchining fortepiano egallash darajasiga qarab, repertuar tanlaydi.

Har bir yangi partiturani o'rganishdagi o'quvchining asosiy vazifasi -tinglash orqali asarning yoki asardagi alohida parchalarni fortepianova chalinguniga qadar ohang balandlik sadosini aniqlashdan iborat. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun xor ovozlarini «ichida kuylash» kerak (tonallikni aniqlash va kuylashni ichki eshitish qobiliyati bilan tekshirish uchun kamertondan foydalanish zarur).

Partiturani fortepianova ijro etgan o'quvchi asar jarangini ichki tinglash qobiliyatining faol ishtiroti orqali aniqlash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday o'qilish, ya'ni fortepianova chalib, ichki sluxni ishlatish va ularni o'zaro muvofiqlashtirish, xor partituralar o'qilishini o'rganishning asosiy metodi hisoblanadi.

Nota matnini o'rganayotib, uning muallifi talablariga katta ma'siliyat va chuqrur hurmat bilan yondashish kerak. Partiturani fortepianova ijro etish vaqtida quydagilarga alohida e'tibor berish kerak:

a) o'quvchi partituraning barcha ovozlarini (ayniqsa melodik ovozini) bog'lab ijro malakalarini egallash uchun shunday asarlar tanlanadiki, ularning tovush yo'nalishida legato ustunlik qilishi zarur; bu fortepianova chalinayotgan xor asarining tabiatini xor ovozlarining real jarangiga yaqinlashtirish uchun;

b) ishning birinchi bosqichidagi asosiy vazifa – partituratagi barcha ovozlarning bog'liq ijrosini to'g'ri tanlangan applikatura vositasida egallash malakasi bo'lib, bunda partiturani pedaldan foydalanmay ijro etish tavsiya qilinadi. Bu usul o'quvchiga asarni tinglay olish va chalish davomida o'z ijrosining kamchiliklarini bartaraf etish imkonini beradi: bular legatoning yo'qligi, noo'rin to'xtam (pauza)lar, tovushning yomon sifati va hokazolardir. Pedalni faqat asarning murakkab joylarini ijro etishni engillashtirish uchungina yordamchi texnik usul sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

Asarning xor ovozlarini ijro etayotgan o'quvchi quydagilarga amal qilishi kerak:

a) berilgan tessitura sharoitida har qanday xor ovozi ohanglarini ayni paytda butun xor partiturasini chalgan holda toza kuylamog'i;

b) xor partiturasini chalayotib, o'quvchi o'zi kuylayotgan xor ovozini tushirib qoldirish;

v) o'qituvchi ko'rsatgan xor ovozining bir qismini «ichida» kuylab, bir xor partiyasidan ikkinchisiga o'tish;

g) jo'rli asar chalganda har qanday xor ovozini kuylash;  
d) faqat jo'rini chalib, xor partiturasining turli ovozlarini qisman «ovozi chiqarib» kuylash.

Sinfdag'i har bir mashg'ulotda texnik vazifalarni tobora murakkablashtirgan holda noma'lum nota matnini o'quviga vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

«Xor partituralarni o'qilishi» metodikasida transpozitsiya qilish malakalarini rivojlantirish ham ahamiyatga ega; zero xor rahbari jamoaning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'rganilayotgan asarni transpozitsiya qila olishi kerak. Bu malakalarni rivojlantirishni o'quvchi o'zi yaxshi bilgan asar asosida qurilgan mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Xor partiturasini sadoning o'rtacha kuchi bilan chalish kerak. Ijro katta quyluvchanlik tabiatiga ega bo'lsa-da, ayni paytda «non legato»ga yaqin ijroga ham yo'l bermoq joiz. Chalayotib, « xor jarangi»ga yaqin sadoga intilish kerak. Buning uchun chap pedalni mayin va egiluvchan qilib qo'llash malakasini egallash kerak. Chunki u jarangni kamaytirib, yumshatadi va unga mayinlik, vokal xususiyatlarini baxshida etadi.

Murakkab partituralarni ustida ishlayotgan jarayonida, o'quvchi to'g'ri tanlangan applikatura qo'llashiga qaramay, to'liq partituranı chalishiga imkon bo'lmaydi. U holda nota matnidagi jo'rini yoki xor ovozlaridagi qiyin lavhalarni ayrim qisqartirish va soddalashtirishlar hisobiga engillashtirishi mumkin. Agar partitura va jo'rlik ovozlarida qo'sh oktavalar mavjud bo'lsa, bunda, bas ovozining silliq chizig'ini saqlagan holda, ikkinchi soprano partiyasi orqali ikkilangan (ovozlarning keng joylashuvida) birinchi baslar yoki ikkinchi tenorlar partiyasini tushirib qoldirish tavsiya etiladi. Shuningdek, boshqa ovozlardan uzoqda joylashgan bas partiyasi tovushlari, akkordlar va jo'rli tovushlarni bir oktava yuqoriga o'tkazish tavsiya etiladi.

O'rganilayotgan asar jo'rligini soddalashtira olish, xor jamoalari bo'lajak rahbarlarining amaliy ishlari uchun juda muhimdir. O'quvchilar xor ovozlarini jo'rlik bilan qo'sha olish malakalariga ham ega bo'lishlari lozim. Xor ovozlarini takrorlovchi jo'rlikga ega asarlarda partitura jarangini jo'rlik elementlari bilan to'ldirgan holda chalish kerak (ya'ni, kirish va ohiri, tonallik o'zgargan vaqtidagi basning garmonik yurishlarini, fortepiano epizodlarini, bog'lovchi epizodlarni, ushlab turilgan akkordlarni, jo'rlikning qisqa pauzalarni to'ldiruvchi alohida akkordlari va jo'r tovushlari va hokazo). Har qanday vaziyatda ham partitura va jo'rini soddalashtirish usullarini qo'llash, uning

to‘laqonli va ifodali ijrosini ta’minlashga qodir bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘quvchidan o‘rganilayotgan asarning har tomonlama tahliliga asoslangan holda, aniq ijo rejasini talab qilish zarur.

Asar tahlili quyidagilarga e’tiborni qaratadi:

musiqa va matn mualliflari (qisqa tarjimai hol, ijodiy tavsifnomalar, ijodiy meros) hamda asar mazmuni xususida ma’lumotlar;

asarning musiqiy-nazariy tahlili (tonallik, tonal reja, musiqiy fikrni rivojlantirish xususiyati. kadentsiyalar, o‘lchov, metr, faktura muhimliklari, sur’at, shakl);

asarning vokal-xor tahlili: xorning turi va ko‘rinishi, ovozlar diapazoni, tessitura, ansambl, soz, intonatsion, vokal-xor va talaffuz murakkabliklari;

asarning ijrochilik tahlili: she’riy matn timsollarining musiqa bilan bog‘lanishi, sezuralardagi nafasni aniqlash, sur’atni o‘rmashish, ovoz yo‘nalish dinamikasining tabiatini, shtrixlar, asar avylari.

O‘zbekiston kompozitorlarining xor asarlarini o‘rganish vaqtida ularning vazn-usul muhimliklari, sinkopalarga, turli usullarga alohida e’tibor berish kerak. Ijro vaqtida applikaturani to‘g‘ri tanlash, musiqiy materialni ikki qo‘l orasida to‘g‘ri taqsimlash bilan bog‘liq texnik murakkabliklar yuz beradi.

Yuqorida ta‘qidlanganidek, fanning asosiy vazifalaridan biri – bu o‘quvchilarining har bir darsda nazorat qiluvchi mustaqil ishslash malakasini shakllantirishdir. Dars qo‘yidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) o‘rganilayotgan asar tahlili;
- 2) o‘rganilayotgan asarni fortepianoda ijro etish va ovozlarni kuylash;

3) transpozitsiya qilish;

4) noma’lum xor asarini notadan o‘qish.

O‘quvchilar har bir yarim yillik davomida 9-10tadan kam bo‘lmagan asarlarini o‘rganadilar. Kurslar bo‘yicha bilim hajmi qo‘yidagi ko‘rinishda taqsimlanadi: II kurs (III-IVsemestrlar):

jo‘rsiz xor partituralarni bir toifali va aralash xori uchun (ikki katorli bayon), bir toifali jo‘qli xorlar( bir qatorli)ni fortepianoda o‘rganish va ijro etish;

IV semestr oxirida mazkur xor partituralarni transpozitsiya qila olish(xromatik yarim ton yuqori va pastga).

III kurs (V-VI semestrlar):

bir muncha murakkab musiqiy materialga ega xor partituralarini ijro etish malakalarini rivojlantirish;

uch-to'rt katorli bir toifali va aralash xorlar uchun asarlarni (jo'rsiz va jo'rli) o'rganish va fortepianoda ijro etish;

transpozitsiya malakalarini rivojlantirish, murakkab bo'limgan xor partituralarni (kich.2 va kat.2 yuqori va pastga) transportlash;

kurs oxiriga kelib- tayyorlangan partituralarni ko'rsatilgan toifada chalish, undagi ovozlarini kuylash, transpozitsiya qila olish, ijro etilayotgan partitura tahliliga bog'liq savollarga javob berish, fortepianoda mustaqil tayyorlangan asarni ijro etish va noma'lum xor partituranı notadan o'qish.

Nota varag'idan o'qish malakasini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish kerak. Bu ishni har bir mashg'ulotda o'tqazib, shuningdek, nazorat darslari va kollokviumlarga ham kiritish lozim. Noma'lum asarni o'qish malakasini egallash ustida ishlash uslubi – bu partituranı avvaldan tahlil etib, xor fakturasi, ritmik murakkabliklar muhimligini ajratib ko'rsatish, oldindagini avvaldan ko'ra olish va hokazo.

Xor partituralarini transpozitsiya qilish uslubi. Bu ko'nikmaning boshlang'ich bosqichi – orttirilgan primaga transpozitsiya qilishdir. Transpozitsiyaning birmuncha murakkab usullari: intervalli, tonal,kalitli.

O'qish jarayonida o'quvchini xor partituralarini o'qish malakasini egallash bo'yicha davomiy ravishda nazorat qilinadi. Uning bilimining to'liq va mustahkamligini, darsda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini, o'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlay bilish malakasini aniqlash maqsadida o'quv rejasi 4ta nazorat darsini belgilagan. Mazkur fan bo'yicha har bir semestr oxirida o'quvchining davomatdagi bilimlari asosida o'qituvchi tomonidan yakuniy baho qo'yiladi, bu baho ekzamenda qo'yilgan baho bilan baravar e'tiborga olinadi.

O'quvchilar nazorat darsida qo'yidagi vazifalarni bajarishlari kerak: yuqorida ko'rsatilgan bilimlarga (ovozlarni kuylab, tahlil savollariga javob berish) muvofiq holda tayyorlangan partituranı fortepianoda ijro etish;

murakkab bo'limgan partituranı kerakli intervalga transpozitsiya qilish; murakkab bo'limgan partituranı nota varaqdan o'qish.

### Savol va amaliy topshiriqlar

1. Xor partiturasini fortepianoda qanday chalish kerak?
2. O'quvchiga pedal bilan chalish malakasini qanday o'rgatish kerak?
3. Xor partitura o'qilishi bo'yicha dars qanday o'tiladi?

4. Xor partituralarni transpozitsiya qilish qanaqa usullari bor?
5. Xor partituralarda qanaqa «Do» kalitlari uchraydi?
6. XPO‘ bo‘yicha ikkita shaxsiy rejalar tuzish – fortepianova yaxshi chaladigan va bo‘s sh chaladigan uchun.
7. Asosiy adabiyotni konspektlash, XPO‘ bo‘yicha xrestmatiyalar va to‘plamlarni o‘rganish.

#### Adabiyotlar

1. Полтавцев И.И., Светозарова М.Ф. Курс чтения хоровых партитур М, 1962,1964 Ч.І и ІІ (2-ое издание)
2. ШелковН. Хрестоматия по чтению хоровых партитур Л.1963
3. Хубларов Р., Азимов М. Хрестоматия по чтению хоровых партитур из произведений композиторов Средней Азии и Казахстана. Т., 1983.
4. Тевлин Б. Хрестоматия по чтению хоровых партитур М 1975-81 (ч 1,2)
5. Казанский С. Хрестоматия по чтению хоровых партитур М, 1976.
6. Андреева Л., Попов В. Хрестоматия по чтению хоровых партитур. Выпуски 1-2 М., 1968-1972-1977.

#### «Xor aranjirovkasi» kursini o‘qitish metodikasi

«Xor aranjirovkasi» kursi bo‘lajak xormeysterlarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Xor aranjirovkasi» kursining maqsad va vazifalari: turli tarkibdagi xorlar uchun yaratilgan xor va vocal asarlarni qayta moslashtirishning amaliy malakalarini egallah; kompozitorlarning xor yozuvini muhimliklarini o‘rganish; o‘quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.

Xor aranjirovka bo‘yicha darslari yakka mashg‘ulot tarzida olib boriladi; bunda dars asosiy shakl bo‘lib, u ikki omildan tashkil topgan: yangi mavzu(materialni)ni tushuntirish va uy vazifasini tekshirib, yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatgan holda tahlil qilish.

Aranjirovka malakalarini egallahda o‘quvchining uy vazifalarining yakuni sifatidagi mustaqil ishi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan tanishuvi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xor aranjirovka va xor uchun qayta ishlash orasidagi farqi. Aranjirovka (frants.arranger-tartibga solish,

tuzatish) – muayyan tarkibga mo‘ljallangan musiqa(xor) asarini o‘zga ijrochilarga moslashtirish. Xor uchun qayta ishslash esa odatda xalq kuy-ko‘shiqlarini avtor tomonidan professional musiqada ishlab chiqilgan uslublar (garmoniyalab yoki polifonik rivojinlantirib) va o‘zining ijodiy elementlar bilan boyitilgan asar.

O‘qituvchining eng muhim vazifalaridan biri – o‘qituvchida asarning asl nusxasi(originali)dagi musiqiy rivojlanish muhimliklariga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lish odatini tarbiyalashdir. Asarni qayta moslashtirishga kirishar ekan, o‘quvchi mazkur asarga hos qirralarni saqlab qolishi zarurligini unutmasligi kerak. Jumladan, kuyni asl holida qoldirish kerak. U faqat transpozitsiya qilinishi mumkin. Garmoniya, sur’at, o‘lchov, dinamika va shakli saqlanib qolinadi. Qayta moslashtirish davomida asarning fakturasi va tonalligini o‘zgartirish mumkin. Aranjirovka jarayonida xor ovozlarining ovoz ko‘lami va tessiturasini hisobga olish kerak.

Vazifalarni bajarishda xor asarlarini tanlash tamoyillari: ular g‘oyaviy-badiiy jihatdan qiziqarli bo‘lishi, shu turdagи qayta moslashtirish uchun qulay bo‘lishi kerak. Xorga qayta moslashtirish jo‘rsiz, jo‘rli xorlar uchun va ko‘pincha yakkaxon ishtirokidagi jo‘rli xorlar uchun qilinadi.

Xor uchun qayta moslashtirishlarining uch asosiy turlari mayjud:  
xor asarlarini( bir tarkibdan boshqasiga) qayta moslashtirish;  
yakkaxon uchun vokal asarlarini (qo‘sish, romans, vokal ansamblari va hokazo) qayta moslashtirish;

cholg‘u asarlarini qayta moslashtirish (adabiy matn bilan va matnsiz).

O‘qitishning boshlang‘ich bosqichi uchun ikki va uch ovozli bir turdagи xorlar uchun yoki bolalar xori uchun qayta moslashtirishlar ma‘qul keladi.

Eng yaxshi aranjirovka uchun tanlovlarning o‘tkazilishi – o‘quvchining ijodiy qobiliyatini yoritish va ularning bu sohadagi faoliyatlarini faollashtirish uslublaridan biridir. Eng yaxshi aranjirovkaning o‘quv xori tomonidan ijro etilishi ushbu fanning yanada yaxshiroq o‘rganilishiga turtki bo‘ladi.

Savollar va amaliy topshiriq

1. Xorga qayta moslashtirish xor uchun qayta ishslashdan nima bilan farqlanadi?

2. Xorga moslashtirish nima uchun kerak?
3. Qanday moslashtirish turlarini bilasiz?
4. Xor aranjirovka qilinishida nima o‘zgarmasdan qoladi?
5. Xor aranjirovka bo‘yicha asosiy adabiyotlar bilan tanishuv.

#### Adabiyotlar

1. Ивакин М. Хоровая аранжировка. М.,1980.
2. Лицвенко И. Практическое руководство по хоровой аранжировке. М.,1962.
3. Медынъ Я. Методика преподавания дирижёрско-хоровых дисциплин. М.,1978.
4. Нечаев Е. Хоровая аранжировка. Т.,2006.
5. Ушкарёв А. Основы хорового письма. М.,1982.

#### TA’LIMNING JAMOAVIY SHAKLLARI.

Xor dirijorligi bo‘limida xor sinfini tashkillashtirish  
va ishlash metodikasi

Xor sinfi – xor dirijorligi bo‘limining maxsus fanlari turkumidagi eng asosiy yo‘naltiruvchi fan hisoblanadi; u mutaxassislari, ya’ni xor jamoalari rahbarlarini maqsadli yo‘nalishda kasbiy darajada tayyorlashni amalga oshiradi.

Xor sinfining maqsadi – bo‘lajak xormeysterlarda dirijorlik va vokal-xor ko‘nikmalarini tarbiyalashga qodir bo‘lish.

Kursning vazifalari – o‘quvchining musiqiy dunyoqarashini kengaytirish, xor repertuarini o‘rganish, tinglash qobiliyatini (ohang va vokal) rivojlantirish, ansamblda kuylash ko‘nikmasini egallash va xorga rahbarlik qilish kabi amaliy malakalarni egallahdan iborat.

Musiqa kollejlarining xor sinflaridagi ish, o‘rta maxsusus musiqqa ta’lim muassasalarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Xor sinfida o‘quvchilar xor san’atining nazariy asoslarini, o‘qituvchining ish uslubini teran tafakkur etib, dirijorlik, solfedgio, musiqqa nazariyasi, garmoniya va boshqa fanlardan olgan bilimlarini maqsadli yo‘nalishda qo‘llashga o‘rganadilar. Xor sinfi – barcha musiqiy-nazariy fanlar, musiqiy tarbiya metodikasi va maxsus turkum fanlari, shuningdek, san’atning turlari (adabiyot, tarix, tasviriy san’at) bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘quv xorini tashkillashtirish metodlari. Xor sinfi xor dirijorligi bo‘limi o‘quvchilarini, ba’zan esa vokal bo‘limi o‘quvchilarini qo‘shtigan

holda tashkil etiladi. O‘quvchilar kontigenti ko‘p bo‘lgan hollarda ulardan kichik va katta xorlar, shuningdek o‘quvchilar tarkibiga qarab – ayollar va aralash xorlar tashkil etiladi.

O‘quv xorining asosiy ishi – bo‘lajak xormeysterlarda kasbiy malakalar, ya‘ni vokal eshitish qobiliyati, xonandalik va ijrochilik malakalarini tarbiyalashdan iboratdir. Xorni jamlash, kuylovchi ovozlarni tanlab olish, ko‘pincha tanlash imkoniyatining chegaralangan holati – bu o‘ta mashaqqatli jarayon bo‘lib, rahbardan sabr-toqat, tashabbus va uning oldida turgan vazifani to‘g‘ri amalgalashirishni talab etadi. Avvaldanoq rahbarning o‘zi xor tarkibini jamlash, tanlab olish, xonandalarni birlashtirish va tarbiyalash, ijro dasturini muayyan ijodiy yo‘nalishda yaratish kabi masalalarni o‘zi hal etadi.

Xor sinfida o‘quv jarayonining ikki tomoni o‘zaro ta’sirda bo‘ladi: birinchisi – o‘quvchining xor xonandasini sifatida qatnashish, ikkinchisi – uning dirijor sifatidagi amaliy ishi. Xor tarkibida kuylash barcha kurslarda butun o‘qish davri davomida majburiy hisoblanadi. Xor sinfida ansambl ijrosi ko‘nikmalari rivojlantiriladi; o‘quvchilar xususiy va umumiy xor jarangi (butun xor yohud guruhlari, ovozlarining jarangi)ni erkin ilg‘ashga o‘rganadilar. Shu o‘rinda o‘qituvchi-xormeysterning xor bilan ishlash ahamiyati naqadar muhim ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. U xor jamoasi (o‘quv xori)ning kasbiy darajasini barpo etib, ayni paytda kasbiy mahoratning yorqin sabog‘i hisoblanadi.

Boshqalarni kuylashga o‘rgatish uchun avvalo dirijorning o‘zi kuylovchi ovozga ega bo‘lishi kerak; o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borishi lozim; doimo kuylovchi formada bo‘lishi va har qanday lahzada o‘z ovozi bilan u yoki bu shtrix, belgi, usullarni ko‘rsatib bera olishi lozim. Agar rahbar kuylash holatida bo‘lmasa, u holda doimo o‘qituvchining talablarini ko‘rsatib berishga qodir bo‘lgan bir yoki, ikki yorqin xonandani avvaldan tayyorlab qo‘yan bo‘lishi kerak.

Tashkilotchilik va rahbarlik masalalarida xormeyster rahbarlikning demokratik uslubini tanlash kerakki, unda kuylovchilarga nisbatan qat‘iyat va xushmuomalalik munosabati mutanosiblashtirilishi lozim. Rahbar mashg‘ulotlarning aniq usulini ta’minlashda repetitsiyalarni o‘tkazishdan boshlab, xonani mashg‘ulotlarga tayyorlashgacha bo‘lgan jarayon rejasini o‘ylab chiqishi lozim.

O‘quv-tarbiya jarayonining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi xonaning mos kelishi, mashg‘ulotlarning vaqtি belgilanishi (jadvali), repetitsiya va kontsert vaqtida xonandalarni to‘g‘ri joylashtirish kabi bir qator tashkilotchilik tadbirlari orqali ta’milanishi kerak. Birinchi navbatda

o‘quvchilarning darsga qatnash intizomini yo‘lga qo‘yish, nota materialidan foydalanishni o‘rgatish va uni saqlashning to‘g‘ri usullarini tashkil etish (xor sinfi kutubxonasi) zarur. Bu masalalarning barchasi bilan tarkibdagi ma’muriy tashkilot: xormeyster, uning yordamchisi, xor sardorlari, shuningdek, xordagi har bir partiyaning guruh sardorlari shug‘ullanishi kerak.

Xor kuylash asosida doimo ijroning to‘g‘ri vokal-texnik madaniyati yotadi. Xorni yaxshi ansambl, soz, talaffuz va nyuanslar bilan ta‘minlovchi ko‘nikmalar vokal-xor texnikasi deb ataladi. Rahbar xor jamoasining vokal-xor texnikani rivojlantirish va takomillashtirish ustida mutnazam ravishda ishlashi kerak. Alovida e’tibor, kuylovchilar ovoz apparatining holatiga qaratilishi lozim; ovozlarni parvarish qilish, ayniqsa I-II kurs o‘quvchilarining ovozlarini to‘g‘ri tarbiyalash va saqlash kerak: xorning tessitura imkoniyatlarini inobatga olgan holda ijro dasturini puxtalik bilan tanlash; soxta kuylashga yo‘l qo‘ymaslik; har bir o‘quvchining vokal rivojlanishini xorda yakka so‘rov va vokal mashg‘ulotlariga qatnashi orqali tizimli ravishda kuzatib borish lozim.

Xor rahbarining pedagogik vazifalari ko‘p jihatdan yakka xonish o‘qituvchisining ishi bilan o‘xshashdir; ammo xormeyster ishining murakkabligi, uning jamoa bilan ishlashidadir. Xor sinfi o‘qituvchisi albatta vokal darsi sinovlarida qatnashishi, ovoz qo‘yish o‘qituvchisi esa — akademik kontsertlar va xorning alovida mashg‘ulotlarida qatnashuvi shartdir. Bu bilan o‘qituvchilar o‘quvchilarning kuylovchi ovozini to‘g‘ri tarbiyalashlari, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada oshirishlari mumkin.

### Xor mashg‘ulotlarini o‘tkazishning izchilligi

1. Xor ovozlarini kuylashga tayyorlash. Bunda muhimi — xorni sozlash, uni eng yaxshi ijrochilik mahoratiga tayyorlash. Ishni vokal-xor mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqli; boisi bu mashqlarning har biri aniq texnik vazifaga egadir. Xor ovozini kuylashga tayyorlash vaqtin, o‘qituvchi tomonidan o‘quv-ijodiy maqsadlaridan kelib chiqib belgilanadi. Mashqlar unison, oktava tarzida, yokiakkordli sado ko‘rinishida o‘tkaziladi. Ovoz apparatini sozlashda juda foydali bo‘lib, yumilgan og‘iz bilan kuylash orqali ovoz tovushi bosh rezonatorga yuborilgan usul hisoblanadi.

2. Xorda kuylovchi tovushni ishlab chiqish. Vokal-xor texnikasi ustida ishlash. Uslubiyotni shunday tuzish kerakki, unda xonandalarning

tinglash idroki va ovoz apparatining ishi o‘rtasidagi uyg‘unlik ko‘nikmalari muntazam ravishda ishlab chiqilishi va mustahkamlanishi zarur. Xor sinfi ishlarida jo‘rsiz kuylashga alohida ahamiyat beriladi. Chunki u xor ijrochiligining eng mukammal turi bo‘lib, ohang va soz ustida ishlash uslubi asosida turadi. O‘quvchilarini intonatsion tarbiyalash asnosida ular tomonidan kuylash jarayonini idroklash o‘ta muhim; shuningdek, aniq kuy iborasidagi kerakli tovush balandligini tasavvur etish uning vokal-texnik jihatdan to‘g‘ri bajarilishi ham juda zarur.

Kuylash texnikasini egallashda tovush hosil qilishning yagona usulini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Demak bu – bir xil darajadagi yumaloq unli tovushga ega bo‘lgan to‘g‘ri ovoz hosilasidir. Kuylaganda katta e’tibor to‘g‘ri talaffuz qilish (diktsiya) tarbiyasiga qaratiladi. Vokal diktsiyasi ustida ishlashdan maqsad – xor qatnashchisini tafakkur bilan, badiiy jihatdan ifodali kuylashga o‘rgatishdir.

Tovush hosil qilishning muhim omili – nafasdir. Mashhur aforizmda – «kuylash maktabi –bu nafas maktabidir»-deyiladi. Darhaqiqat bunda kuylovchi ovozni shakllantiruvchi poydevor sanalmish nafasning muhim ekanligi ta’kidlanadi. Har bir kuylovchining to‘g‘ri nafas olishga o‘rgatish – o‘qituvchining birinchi galddagi vazifasidir. Kuylash vaqtida ularni e’tibor bilan kuzatish, nafas haqida eslatib turish lozim. Xor kuylashda, har bir xonandaning to‘g‘ri nafas ola bilishi, juda muhim bo‘lgan usul,ya’ni zanjirli nafasni ishlab chiqish imkonini beradi.

3. Ijrochilik ishi. Vaqt o‘tishi bilan o‘quvchilar vokal-xor malakalarini egallaydilar va rahbar oldida muhim vazifa – musiqiy timsolli tafakkurni shakllantirish ishi turadi. Xorning muntazam ravishdagi o‘quv-ijodiy ishlarida malaka va ijod o‘zaro mutanosib bo‘lishi kerak. Xor rabbarini musiqiy-ifoda vositalarini ijrochilarga etkazish metodikasini egallagan bo‘lishi zarur. Bunga tovush yo‘nalishi, vazn-usul va sur‘at, tembr, dinamika, iboralar (frazirovka) va musiqiy shakl kiradi. Xor asarlarining ifodali ijrosiga xonandalarning ijro etilayotgan asarga bo‘lgan munosabati ham ta’sir qiladi.

O‘quv xorining ishida jamoaning ijodiy qiyofasini belgilab beruvchi ijro dasturi (repertuar) katta ahamiyatga ega. U butun o‘quv-tarbiyaviy jarayonga ta’sir etadi; uning zaminida musiqiy –nazariy bilimlar jamlanib, vokal-xor malakalarini ishlab chiqiladi. Ijro dasturda ko‘proq jo‘rsiz asarlar bo‘lishi lozim. A cappella kuylash, xordan yuqori darajadagi ijrochilik madaniyati, texnik mahoratni talab qiladi. Jo‘rsiz kuylash malakalarini o‘quvchilarini musiqiy jihatdan rivojlantiradi, chunki

ko‘p ovozli ijro jarayonida garmonik eshitish qobiliyati, intonatsiya sofligi, lad hissi, vokal-xor texnikasi takomillashadi. Ijro dasturi mavzu, janr, uslub, shakl tuzilishi va musiqiy til badiiy vositalari jihatidan rang –barang bo‘lishi kerak..

Repertuar tanlashda rahbar ko‘pincha, xor jamoasining sifati va soni bilan bog‘liq bo‘lgan turli sabablarga ko‘ra, , birorta asarni, mavjud xor tarkibiga moslashga majbur bo‘ladi. Shuning uchun har bir xormeyster xor aranjirovkasini asosiy qoidalarini bilishi zarur. Xor aranjirovkasiga bo‘lgan zaruriyati ayniqsa bir jinsli xorlar uchundir, chunki ular uchun adabiyot etarli emas.

Repertuarni tuzishda «oddidayn murakkabga» tamoyiliga rioya qilish kerak. Unda g‘oyaviy- badiiy yo‘nalishda tarbiyalovchi mumtoz asarlar qatorida muayyan o‘rin, xor yozuvining zamonaviy texnikasidan foydalanimagan ( keskin noohangdosh garmoniya, rang-barang sur’atlar mutanosibligi, tonal qarama-qarshiliklari va h. k.) zamonaviy asarlarga ajratiladi. Rahbar doimiy ravishda xor adabiyotini o‘rganmoqligi, eski va yangi nashriyotlarni ko‘rib chiqishligi, xor musiqasini ko‘p tinglashi, professional va havaskor jamoalar ijodlarini kuzatishi lozim.

Xor kuylash musiqa san’atining har qanday ijrochilik shakli singari doimiy kontsert faoliyati orqaligina rivojlanib boradi. Xor kontserti – bu xorda amalga oshirilgan ishlarning barcha imkoniyatlarini aniqlaydi; ya’ni uning intizomini, rahbar irodasiga bo‘ysunish layoqati, sahnabopligi, emotSIONalligini va hokazo.

Kontsert – bu xor san’ati targ‘ibotidir. Ular turli toifada bo‘lishi mumkin: ya’ni, mavzuiy (muayyan mavzuga bag‘ishlangan), monografik (birorta kompozitor yoki shoir ijodiga bag‘ishlangan) yohud ijodiy hisobot shaklida. Jamoalar odatda aralash kontsertlarda ishtirok etib, bir yoki bir necha asarlarni ijro etib, qoidaga binoan, kontsertni yo boshlaydi yoki yakunlaydi.

Kontsertdagi chiqishlar katta ruhiy taranglik va jismoniy kuchni talab etadi; shuning uchun kontsert oldi repetitsiyasini quyidagi tartibda o‘tkazish kerak: xonandalar ovozini charchatib quymaslik ularni faqat ishchi holatga keltirish uchun pozitsion sozlash, jismonan ozod qilish, nafas tayanchini his etish va h.k. Kontsert chiqishlarining tashqi qiyofasi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda ijro dasturi hal qiluvchi lahzadir. Bu asnoda uslub birligiga, asarning mantiqiy va tonal izchilligiga e’tibor qaratish zarur.

## Xor dirijorligi amaliyoti

Bu turdag'i amaliyotning maqsadi – xor bilan ishlash va uni boshqarishning amaliy malakalarini egallashdir.

Amaliyot vazifalari – xor jamoasini tashkil etish, uning ishini rejalaşdırish uslubini egallash; xor asarlarini o'rganishdagi mashg'ulot ishlaring bosqich izchilligini o'rganishdan iborat.

O'quvchilar amaliyotini boshqarish uch yo'nalishda olib boriladi: xor bilan tashkiliy ishlarni olib borish amaliy malakalarini egallash; dirijorlik va xorni boshqarish amaliyotini o'tkazish;

davlat attestatsiyasi uchun dastur tayyorlash yoki alohida kontsert chiqishlarini o'tkazish.

Ishning bu turlari o'quvchi tomonidan asosiy o'qituvchi, ya'ni dirijorlik bo'yicha o'qituvchi rahbarligida bajariladi. Xor sinfi o'qituvchisi esa avval erishilgan ijrochilik usuli va darajasi buzilmasligiga e'tibor qaratadi.

O'quvchilar darsga tayyorgarlik ko'rib, ya'ni ixcham, aniq tizimli ko'rinishga ega bo'lgan asarni o'rganish jarayonini o'tkazish rejasini tayyorlab kelishi kerak. O'quvchilarни xor bilan ishlashni uslubiy to'g'ri yo'nalishda olib borishlari lozim. Ularni intonatsiya, ansambl, diktsiya (to'g'ri talaffuz) nuqtai nazardan talabchan bo'lishga o'rgatish zarur. Shuningdek, ularga xor partiturası ustida ishlashni o'rgatish, ayniqsa bunda g'oyaviy-badiiy mazmun, tasviriy vositalar, kuy va so'z munosabatlari va h.k.ga e'tibor qaratish lozimligini uqdirish kerak.

O'quvchilar mashg'ulotni ishonchli tarzda o'tkazish uchun xor asarini to'liq bilishi zarur. Amaliy mashg'ulotlarda u dirijorlik malakalari, o'z kuchiga ishonch va kasbiy chiniqishni asta sekin egallab boradi. O'quvchi bu mashg'ulotlarda xor bilan muloqot qilish ko'nikmalarini o'rganadi. O'z fikrlarini aniq va to'g'ri bayon etish, uning dirijorlik talablari xor tomonidan bajarilishi, xor bilan muomalani asosiy professional shakli hisoblanadi. Xor sinfi rahbari doimiy ravishda etakchilik tashabbusi ayni paytda dirijorlik pultida kim turgan bo'lsa, o'shangacha tegishli ekanini uqdirib borishi lozim. Har bir mashg'ulotdan so'ng darsni tahlil etish, o'qituvchi va xor rahbari bilan birgalikda uning natijalarini muhokama qilish, xatolar va ularni to'g'irlash yo'llarini ko'rsatish zarur.

O'quv dargohidan tashqarida olib boriladigan ishlabchiqarish amaliyoti pedagogik ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Amaliyot turlari:

xor dirijorligi bo‘limining o‘quv xori bilan;  
o‘quvchilarning o‘zлari tomonidan tashkil etilgan (faol amaliyot)  
havaskorlik yoki bolalar xorlari bilan;  
o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilgan havaskorlik xorlari bilan  
(assistantlik va tanishuv-kuzatuv amaliyot);  
professional jamoalar bilan (tanishuv-kuzatuv).

Amaliyot yakuni – akademik kontsert. Amaliyotchining kontsertga  
tayyorgarligi (ruhan sozlanish, estradadagi hatti-harakati, tashqi  
ko‘rinish). Ish jarayoni va amaliyotchining chiqishlarini o‘qituvchi  
va xor qatnashchilari bilan birgalikda muhokama qilish.

### Havaskorlik xorlarida amaliyotga rahbarlik qilish metodlari

Havaskorlik xori dirijordan tashkilotchilik, pedagogik, xormeysterlik  
va artistik sifatlarga ega bo‘lishni talab etadi. Havaskorlik xorida  
amaliyot o‘tkazish yosh dirijorga uning tanlagan ixtisosligiga bo‘lgan  
qiziqishini rivojlantirishga qodir ko‘nikmalarini beradi. Amaliyot  
rahbarining ahamiyati, ayniqsa boshlang‘ich bosqichda juda muhim.  
Chunki u – xor bilan ishlash jarayonida vujudga keluvchi barcha  
savollar bo‘yicha maslahatchidir. Amaliyot yakuni – amaliyotchining  
kontsertdagi chiqishidir.

Havaskorlik xorida xormeyster yordamchisi sifatidagi assistantlik  
amaliyoti va uni tashkillashtirish metodi.

Tanishuv-kuzatuv amaliyoti: tajribali xormeyster – xor jamoalar  
rahbarlarining mashg‘ulotlariga mutnazam ravishda qatnashib, ish  
uslubi va tajribasini o‘rganishi. Xor rahbarlarining jamoalarini qachon  
tashkil qilinganligi, ijrochilik faoliyati, repertuari xususidagi suhabatlarini  
eshitishi. Amaliyotchilarни xor jamoalarida kuylab qatnashishi.  
Amaliyot bo‘yicha kundalik tutish va hisobot tuzish zarurdir.

### Savollar va amaliy topshiriq

1. Xor jamoani tashkil qilish nimadan boshlanadi?
2. Vokal-xor texnikasi tushunchasiga nimalar kiradi?
3. Xorda yaxshi diktsiya (talaffuz qilish) nimalardan bog‘lik?
4. Ovoz paydo bo‘lishida nima muhim hisoblanadi?
5. Xor jamoani rahbari qanday bo‘lishi lozim?
6. Repertuar tanlashda qanaqa talablar quyiladi?
7. Xorda ovozlarni kuylashga tayyorlash qanday o‘tkaziladi?

8. Amaliyotni mohiyati nimada?
9. Bolalar va havaskor xori uchun vokal-xor mashqlar kompleksini tuzish.

#### Adabiyotlar

1. Анисимов А. Дирижёр - хормейстер. Л., 1976.
2. Bahritdinova N. O'zbekiston bolalar xor madaniyati. T., 2002.
3. Виноградов К. Работа над дикцией в хоре. М., 1967.
4. Нечаев Е. Работа с самодеятельным хором. Т., 2008.
5. Пигров К. Руководство хором. М., 1964.
6. Соколов В. Работа с хором. М., 1983.
7. Стулова Г. Хоровой класс. М., 1988.
8. Шамина Л. Работа с самодеятельным хоровым коллективом. М., 1988.
9. Sharafiyeva N. Xor sinfi. T., 2005.

#### Ma'ruzaviy kurslarni o'qitishning asosiy shakllari va metodlari

O'quv jarayonida muayyan o'rinni ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot kabi ta'limning jamoaviy shakllariga ajratilgan ma'ruzaviy uslubda «Xorshunoslik va xor bilan ishlash metodikasi», «Xor adabiyoti», «Musiqiy tarbiya metodikasi» kabi fanlar olib boriladi. Mazkur fanlar xor san'ati mutaxassislarni kasbiy darajada tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ular o'quvchini pedagogik va ijrochilik faoliyatida zarur bo'ladigan bilim, malaka va uslublar bilan qurollantiradi; shuningdek, tor ixtisosli sohadagi dunyoqarashini nafaqat kengaytirib boyitadi, balki har tomonlama savodli, o'z sohasining fidoysi bo'lgan – bolalar va havaskorlik xor jamoalari rahbarlari hamda musiqa o'qituvchilarini tarbiyalaydi.

Ma'ruzaviy fanlarni o'qitish – o'quv jarayonining eng jiddiy va ma'suliyatli qismidir. Ma'ruzani o'qitishning murakkabligi – ta'limning barcha shakl va uslublari bo'lmish umumta'lim va tarbiyaviy funktsiyalarining birligida namoyon bo'luvchi majmuaviy yondashuvvdirdi. Ma'ruza mazmuniga nisbatan majmuaviylik shu bilan ifodalananadiki, unda falsafa, etika, estetika, psixologiya, siyosatshunoslik, pedagogika va metodika asoslari va qonuniyatlarini nazarda tutildi va jalb etiladi. U bilim va ishonch xabari, pedagog-lektor va o'quvchining o'zaro ta'siri kabi shakllar birligida ifodalananadi.

Ma’ruzaviy kursni o‘qitishning muhim tomoni. Uning dolzarbligi – ilm va san’atning zamonaviy darajadagi holati, so‘nggi yutuqlari, o‘quv materialining doimiy takomillashuvi va yangilanishidir. Bularning barchasi o‘qituvchidan nafaqat o‘qitayotgan fan, balki ilm va san’atning aralash sohalari bo‘yicha ham asosli bilim va ma’lumotlarga ega bo‘lishni talab etadi.

O‘qituvchi doimo o‘zining ilmiy-nazariy va g‘oyaviy darajasini o‘stirib, pedagogik ishlariga ijodiy yondashuvi, o‘z metodikasini takomillashtirib, faoliyatning unumli usullaridan foydalanishi, uslubiy va musiqashunoslik adabiyotini bilish va notiqlik san’atini egallashi lozim.

Har qanday maxsus ma’ruzaviy kursni o‘qitishda uning o‘ziga xos muhimliklaridan qat’iy nazar ko‘plab, fan mazmuniga bog‘liq bo‘lмаган holat va qonuniyatlar uchraydi.

O‘qituvchi- lektorning shaxsiy ishonchi va qiziquvchanligi – ma’ruzaning ta’sir kuchini oshirib, o‘quvchiga ijobiy singishida zarur bo‘lgan shartlardandir.

Ma’ruza – lectio – lotinchadan «o‘qish» degan ma’noni anglatadi. Ma’ruza ta’lim uslubi sifatida ko‘p asrlik tarixga ega. Qadimiy Yunonistonda vujudga kelgan va birmuncha keyin Qadim Rimda joriy bo‘lgan ma’ruza, o‘rtá asrlar universitetlarida etakchilik qildi. Ko‘p davrlar mobaynida o‘qituvchilar, cherkov tomonidan qat’iy qonunlarga asoslangan tayyor turli qo‘lyozmalar keyinroq bosma nashrlardagi matnlarni, o‘qishar edi. Mazkur matnlarni o‘qishda chetga chiqish ta’qiqlanardi. «Lektsiya» atamasi shundan kelib chiqqan. Ma’ruzaviy uslub asta—sekin o‘zgarib bordi va ilm-fan, texnika va san’atni rivojlantirish ma’ruzalar mazmunini yangilash va eskirgan qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etardi. Ilg‘or olimlar dastlab matnlarga ilm-fan yutuqlariga muvofiq keluvchi sharhlar yozishdi, keyinchalik esa ularni ma’lumot va dalillar bilan to‘ldirishdi. Ma’ruzalar o‘qituvchilarning mustaqil ijod mahsuli bo‘lib, zamonaviylariga yaqin shakllarga ega bo‘ldilar.

«Lektsiya (ma’ruza)» atamasi bir necha ma’nolarga ega. Ma’ruza deb – o‘qituvchi o‘quv rejasidagi birorta o‘quv mashg‘ulotini og‘zaki tarzda bayon etishiga aytildi.

Ma’ruza – halqaro hayot, siyosat, ilm-fan, texnika va san’atda erishilgan yutuqlar, turli xil bilimlarni ommalashtirish uchun qilinadigan ommaviy chiqishlardir.

O‘quv yurtlaridagi ma’ruzalar – bu kursning tizimli, qat’iy izchillikkagi, ilmiy asoslangan va rad etib bo‘imas darajada isbotlangan

bayoni. Ularning maqsadi – o'quvchilarga chuqur bilim berish, muayyan darajadagi ilmiy–nazariy ma'lumotlardan xabardor etish va mazkur fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, turli voqelik va faktlar ustida bosh qotirishga o'rgatish, ma'ruzalarda olgan bilimlarini chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi mustaqil ishlarga yo'naltirishdir. O'quvchilarning fikrflash faolligini rivojlantirish — pedagog–lektorning asosiy vazifalaridan biridir.

Ma'ruzaning maqsad va mazmuniga qarab ular quyidagi toifalarga bo'linadi: o'quv–dasturiy (umum tizimli ma'ruzaviy kurs), kirish, umumiy va ko'rsatmali .

O'quv–dasturiy ma'ruzalar ma'ruza vaqtining katta qismini egallaydi. Ularning tematikasi kurs dasturiga asosan belgilanadi. Ularda tizimli va izchillik bilan nazariy asoslar hamda o'rganilayotgan fanning bosh muammolari, nisbatan muhim bo'lgan bo'limlar va kurs mavzulari yoritiladi.

Kirish ma'ruzalar har bir kursining boshida o'quv fani masalalarining keng doirasini qamragan holda o'qiladi. Ularning vazifasi – kurs yo'nalishi va vazifalarini belgilash; uning mazmunini qisqa, ammo lo'nda qilib tavsiflash; bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda mazkur fanning o'rni va ahamiyatini ajratib ko'rsatishdan iboratdir

Umumiy ma'ruzalar odatda ma'ruzaviy kursning oxirida o'qiladi. Ularning vazifasi – yakun yasash, o'quvchilar olgan bilimni tizimlashtirish.

Ko'rsatmali ma'ruzalar sirtqi bo'lim uchun xosdir. Ularning vazifasi – o'quvchilarga mazkur fan bo'yicha mustaqil ishslash uchun ko'rsatmalar berish; bir muncha muhim bo'lgan bo'limlarga e'tibor qaratish; idrok etish uchun qiyin bo'lgan joylarni ajratib ko'rsatish.

Ma'ruzalar nafaqat toifa, balki bayon shakli bo'yicha ham farqlanadi. Ma'ruzaviy uslubdagi shakllar: ma'ruza-monolog, ma'ruza-suhbat.

Ma'ruza-monolog idrok uchun murakkabroq bo'lgani bois oliv o'quv yurtlarida qo'llaniladi. Monolog shakli uzoq davom etuvchi diqqat–e'tiborni talab qiladi. Zero bunga o'n besh–o'n etti yoshli o'quvchilar o'zlarining to'qqiz yillik umum ta'limi bilan hali tayyor emasdirlar. Ba'zan o'rta ta'limda ulardan foydalilanadi; faqat chegaralangan ko'rinishda.

Ma'ruza–suhbat o'qituvchi va o'quvchining jonli muloqoti uchun mo'ljallangan. Bu shakl – o'rta maxsus bilim yurtlarida asosiy

xisoblanadi. Bunda bayonning monolog shakli dialog bilan birgalikda qo'llaniladiki, natijada ta'lim muhiti bir muncha jonli bo'lib, o'qituvchini o'quvchilar bilan yaqinlashtiradi va ular diqqat—e'tiborini faollashtirib, o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ma'ruzalar ustida ishslash uslubi ikki asosiy bosqichdan iborat: birinchisi — ma'ruza matnnini yozish, ikkinchisi — uni tinglovchilar oldida og'zaki tarzda bayon etish.

Birinchi bosqichdagi ishning izchilligi:

kurs dasturini o'rganish;

adabiyot bilan tanishuv (garsliklar; o'quv—metodik qo'llanmalar, musiqiy—illyustrativ materiallar va h.q.);

ma'ruza rejasini tuzish;

ma'ruzaning to'liq matnnini yozish.

Ikkinci bosqichdagi ishlarning izchilligi:

erkin og'zaki bayon uchun matnni o'rganib olish (yozilganlarga qaramasdan bayon etish);

tayyorlov mashg'ulot ishi — notiqlik texnikasi unsurlarini ishlab chiqish maqsadida matnni ovoz chiqarib ko'p marotaba takrorlash (diktsiya, artikulyatsiya, nafas, talaffuzdagi nuqsonlarni tuzatish) va ma'ruzani bayon etishda to'g'ri sur'atni belgilab olish;

ma'ruzani auditoriyada, tinglovchilar oldida aytib berish.

Uning ta'sir kuchi samaradorligining asosiy sharti — bu notiqlik mahoratini yuksak darajada egallash, ya'ni ma'ruza mazmunini aniq va jonli tarzda, ishonarli qilib bayon etish. Notiqlik san'ati — notiqlik mahoratining eng muhim jihatidir. Uning asosi — fanni chuqur bilish va ma'ruza materialidan erkin foydalana olishdir.

Ma'ruzani konspekt qilish — o'quvchilarga materialni yahshiroq o'zlashtirishda yordam beradi. Boisi o'rta ta'limda bolalar hali asosiy holatlarni tez ilg'ab yozib olish malakasiga ega emaslar, shunday ekan, ma'ruzani konspekt qilish — ayni muddaodir.

Seminar mashg'ulotlari — nafaqat ta'lim, balki tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Seminar mashg'ulotlarining asosiy maqsadi — ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilimni chuqurlashtirish va tizimlashtirish, ularni tushunib etish va o'zlashtirish, shuningdek mustaqil ishslash malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. Seminarlarning bosh funksiyasi — o'quvchi bilimni qay tarzda o'zlashtirayotganini nazorat qilish. Seminar mashg'ulotlarini o'tkazish shakllari turlicha. O'rta maxsus o'quv yurtlarida ko'proq seminar—suhbat, kamroq seminar—diskussiya (muzokara) va og'zaki dokladli seminarlardan foydalilanildi.

Seminar suhbat – mashg‘ulotning bir munkha oddiy va qulay shakli. Uning mazmuni odatda o‘tilgan ma’ruzalar materialiga asoslanadi. Bunday seminarlar vazifasi – kursning muayyan sohasi bo‘yicha ma’lumotlar doirasini kengaytirish va o‘ta murakkab materialni o‘zlashtirib olish. Uni o‘tkazish uslubi quyidagicha: o‘qituvchi o‘quvchiga mavzu va seminar rejasini e‘lon qiladi; uning mazmuni va yo‘nalishini belgilovchi savollar ro‘yxatini beradi, adabiyotlarni tavsya qiladi (nafaqat butun mavzu bo‘yicha, balki har bir savol uchun alohida adabiyotni), shuningdek, u seminar shaklini ham aytib, unga tayyorlanish uchun metodik ko‘rsatmalar beradi.

Ma’ruzaviy kurslarni o‘qitish taqvim (kalendor) rejasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu rejalarни o‘qituvchi o‘quv dasturiga muvofiq ravishda tuzadi. Agar fanni o‘rganish bir yilga mo‘ljallangan bo‘lsa, u holda dastur materialini ikkita yarim yilga mo‘ljallab taqsimlash kerak. Xor fanlarining zamonaviy o‘quv dasturlarida har bir mavzuni o‘rganishga ajratilgan soatlar soni ko‘rsatilgan tematik rejalar mayjud. Bu taqvim rejalarini tuzishni bir munkha osonlashtiradi. Bunda o‘qituvchining vazifasi – har bir mavzuni o‘tish uchun oy va kunni belgilashdir. Agar mavzu katta bo‘lsa, u bir necha mashg‘ulotga cho‘zilsa – ularning har biriga material hajmi taqsimlanadi. Bundan tashqari umumiyoq soatlar sonidan seminar va nazorat mashg‘ulotlari uchun vaqt ajratiladi. Ularni qo‘srimcha vaqtida o‘tkazishga ruxsat berilmaydi. Chunki bu talabalarning haftalik yuklamasini orttirib yuboradi.

Taqvim rejalar maxsus blankalarda qayd etiladi. Bir munkha aniq shakli quyidagicha:

Sana	Mavzuning nomlanishi	Qaydlar
------	----------------------	---------

Har bir ma’ruzaviy xor faniga haftada ikki soat ajratiladi, mashg‘ulot sanasi ikki soatga teng. Shu bois soatlar soni uchun maxsus grafa ajratish shart emas. Ikkinci grafada mavzu ko‘rsatiladi. Agar mavzu ikki soatdan ortiq vaqtini egallasa, u holda keyingi sanaga « mavzuning davomi» deb yozib qo‘yiladi va har bir mashg‘ulot uchun material hajmi aniqlanadi. Uchinchi grafada semestr yakunlangach, o‘qituvchi mavzu biror sabab tufayli boshqa sanaga o‘tkazilgan yoki almashtirilgan bo‘lsa, u yoki bu mavzuning soatlar soni o‘zgargan bo‘lsa qayd etib qo‘yadi. O‘ylab tuzilgan taqvim rejasi o‘quv jarayonini tashkillashtirishda faol vosita bo‘lib xizmat qiladi.

## Savollar

1. «Lektsiya» atamasi nimani bildiradi?
2. Ma’ruza ustida ishlash uslubi nechta bosqichdan iborat?
3. Ma’ruzalarni qanday turlari va shakllari bo‘ladi?
4. Seminar mashg‘ulotlarini maqsadi nimada?
5. Konspektlash nima uchun kerak?
6. Xor fanlar bo‘yicha ma’ruzaga haftada qancha soat ajratiladi?

## Adabiyotlar

1. Гудкова Е.А. Методика преподавания хоровых дисциплин (лекционные курсы). Т., 1987.
2. Егоров А. Очерки по методике преподавания хоровых дисциплин. Л., 1958.
3. Медынъ Я. Методика преподавания дирижёрско-хоровых дисциплин. М., 1978
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Т., 2005.

## «Xorshunoslik va xor bilan ishslash mātodikasi»

Xorshunoslik va xor bilan ishslash metodikasi – maxsus xor fanlari turkumidagi eng muhim fanlardan biridir.

Kursning maqsad va vazifalari – xor san’ati nazariyasi, xor ijrochiligi tarixini o‘rganish hamda, xor jamoalariga rahbarlik qilish malakasi va metodikasini egallashdan iborat.

«Xorshunoslik va xor bilan ishslash metodikasi» kursining dasturi o‘rta maxsus musiqa o‘quv yurtlari uchun mantiqan o‘ylangan tarzda tuzilganki, bu kursni izchil va tizimli ravishda o‘rganishni ta’minlaydi.

Xorshunoslik kursining mazmuni va hajmi o‘rta malakali mutaxassis-xormeysterlarni tayyorlashga to‘liq mos keladi. Shundan kelib chiqib dastur tematikasi amaliy ish uchun eng zarur bo‘lgan masalalar doirasi bilan chegaralanadi.

Har qanday fanning o‘qitish metodikasi ikkita savolga javob bera olishi shart:

- nima o‘rgatiladi, ya’ni fan mazmuni qanday;
- qanday o‘rgatiladi, ya’ni qaysi metodik usullarni qo‘llagan holda beriladigan ma’lumotni o‘zlashtirishga erishiladi.

Kursni o‘qitishda mashg‘ulotning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- a) ma’ruzalardan;
- b) seminar va amaliy mashg‘ulotlardan.

Kursni olib borishdagi asosiy metodik ko‘rsatmalardan biri bu – xor san‘ati nazariyasini ijrochilik amaliyoti bilan uzviy bog‘lagan holda bayon etishdir. Shu bois fan ma’ruzasining muhimligi, unda musiqiy-illyustrativ va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish bilan belgilanadi.

Xorshunoslik va xor bilan ishslash metodikasi jarayonida doimo o‘quvchilarning boshqa fanlardan o‘rgangan va mustaqil amaliy ishlardan olgan bilim va malakalariga tayanish zarur.

Xor san‘ati nazariy asoslarining bayon etilishi, albatta xor adabiyoti va xor ijrochilik amaliyotidan olingan misollar bilan mustahkamlanishi kerak. Musiqiy misollar g‘arb, rus va o‘zbek kompozitorlari tomonidan turli janr va usullarda yaratilgan eng yaxshi xor asarlaridan namunalar bo‘lishi kerak. Bu asarlarni fortepianoda chalib yoki audioyozuvlар orqali eshittirib ko‘rsatish mumkin. Ko‘rgazma uchun yuksak ijo madaniyati bilan ajralib turuvchi eng yirik xor jamoalarining yozuvlarini tanlab olish kerak.

Ko‘rgazmali qurollar bilan o‘quv materiallarini ko‘rsatish ham katta ahamiyatga ega, bu bilimlarni yanada mustahkamlanishiga imkon beradi. Bular mashhur xor san‘ati arboblarining portretlari, xor jamoalarining fotosuratlari, jadval va sxemalar. Masalan, «Tovush hosil qilish» mavzu bo‘yicha ma’ruzaga ovoz pardalarining kuylash jarayonida va tinch vaqtidagi holatini rasmiy tasvirlarini ko‘rsatish. Bunday tovush paydo bo‘lish jarayonining ko‘rgazmali ravishda ko‘rsatilishi, o‘quvchilarni to‘g‘ri tasavvurga ega qiladi.

«Xor, uning turlari va tarkiblari», «Tovush yunalishining har xil turlari», «Diktsiya», «Ansamblar», «Xorning sozi» ko‘proq xor asarlarini illyustratsiya sifatida qo‘llash kerak. Mazkur o‘qo‘v materialidan o‘quvchilar kelajakda havaskor jamoalar va bolalar xori bilan ishslashlarda foydalana olishlarini nazarda tutish tavsiya etiladi.

Ma’ruzalarga qo‘srimcha ravishda o‘qituvchi bilan birqalikda kontsertlarga tushish va turli xil xor jamoalarining mashg‘ulotlarini kuzatish ham tavsiya etiladi.

Ma’ruzalarni konsept tarzida yozib borish masalasi muhim ahamiyatga ega. Kutubxonada xorshunoslik bo‘yicha adabiyotlar har doim ham etarli miqdorda bo‘lmaydi, ulardan ayrimlari esa bibliografik taqchillik bo‘lib qoldi. Shu bois ham o‘qituvchi qisqa, ammo mazmunli ma’ruza konseptini tuzishi lozim. U shunday bo‘lishi kerakki, kam

vaqtini egallasin va o‘quvchi uy vazifasini bajarayotganida dars paytida eshitganlarini xotirasida tiklay olsin.

Xorshunoslik va xor bilan ishlash metodikasi fanini o‘rganishda amaliy mashg‘ulot muhim ahamiyat kasb etadi. U xor bilan ishlash rejasini tuzishda, xor asarlarini o‘rganishning uslubiy ishllovlarida, xor asarlari to‘plamlariga annotatsiya yozishda, xor xonishi uchun mashqlarda o‘z aksini topgandir. Xor partituralarina tahlil etish va asarlarga annotatsiya yozish malakasini egallah, o‘quvchilar uchun ayniqsa muhimdir.

Musiqa bilim yurtlari o‘quvchilar uchun asosiy masalalarni o‘z ichiga olgan quyidagi rejani taqdim etish mumkin.

Xor partiturasini tahlil etish rejasи:

Kompozitor va she’riy matn muallifi haqida qisqacha ma’lumot.  
Adabiy matn mazmuni.

Musiqiy-nazariy tahlil:

- a) asar shakli;
- b) lad-parda tuzilishi;
- v) garmonik til tavsifnomasi;
- g) uslubiy tuzilish, vazn, usul tavsifnomasi.

4. Vokal-xor tahlili:

- a) xorning turi, ko‘rinishi va tarkibi;
- b) xor yozuvini tuzilishi;
- v) soz va ansambl muhimliklari;

g) kuylovchi nafas, tovush hosilasi, tovush yo‘nalishi, diktsiya muhimliklari;

- d) xorda har bir partiyaning diapazoni (ovoz ko‘lami);
- e) tessitura.

5. Ijrochilik tahlili:

- a) asar ta’rifi;
- b) asarning sur’at rejasi, agogik o‘zgarishlar;
- v) dinamik rejasi, nyuanslar;
- g) avjlarni aniqlash;
- d) dirijorlik usullari.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun rejadan to‘liq, shuningdek, alohida bo‘limlarini qo‘llagan holda foydalanish mumkin.

Tahlil uchun odatda ikkinchi kurs o‘quvchilarining musiqiy-nazariy bilimlariga muvofiq xolda a kapella xor miniyaturlari tanlanadi (chunki xorshunoslik fani II kursda o‘tiladi)

O‘quvchiga uy ishini berishdan avval o‘qituvchi sinfda asar tahlilining namunasini ko‘rsatadi, shundan sungina o‘quvchiga vazifa

topshiradi. Topshiriq individual tarzda bo‘lsinki, bunda o‘quvchilar turli xil xor partituralarni tahlil etish imkoniga ega bo‘lsinlar; bu borada mutaxassislik sinfida dirijorlik qilayotgan repertuardan ham foydalanish mumkin. Shunga o‘xhash vazifalarni o‘quvchilar uyda bajaradilar. O‘qituvchi har bir topshiriqni tekshiradi va baholaydi.

«Xorshunoslik va xor bilan ishslash metodikasi» kursida nazariy holat amaliyat bilan uzviy bog‘langan; shu bois o‘qitishning eng asosiy vazifalaridan biri- bu bo‘lajak xormeysterlarni mustaqil bo‘lishiga qodir etib tarbiyalashdir (repertuar tanlash, kuylashga tayyorlovchi mashqlar majmuini tuzish, xor bilan ishlovchi repetitsiya ishlarining izchilligi va xor asari ustida ishslash usullarini belgilash, uning texnik va badiiy murakkabliklarini ajratib ko‘rsatish). Bu masalalarning ko‘pchiligi seminar mashg‘ulotlarida muhokama etiluvchi muhim masalalardan bo‘lishi kerak.

Xorshunoslik adabiyotlarini o‘rganish ayniqsa katta ahamiyatga ega. Shuning uchun seminarlar xorshunoslik bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanmalar va maqolalarni batafsil o‘rganishga bag‘ishlanadi. Fanning boshida o‘qituvchi adabiyotlar ro‘yxatini e‘lon qiladi; seminar mashg‘ulotlarining vaqtini belgilaydi va u yoki bu materialni muhokama qilish muddatini aniq ko‘rsatadiki, o‘quvchilar shu muddatgacha talab qilingan qo‘llanmani o‘qib ulgurishsin. Metodik adabiyotga bag‘ishlangan mashg‘ulot suhabat tarzida quriladi. Agar baxsli masalalarni qamragan maqola bo‘lsa, seminar muzokara shaklida o‘tkaziladi. O‘qituvchining vazifasi – uni keskin tarzda tashkil etib, to‘g‘ri yo‘naltira olishdir. Seminarni muvaffaqiyatlari o‘tkazishning asosiy sharti – muhokama qilinayotgan adabiyot (yoki maqola)ni barcha tomonidan o‘qib chiqiganidir. Seminarni boshqacha ko‘rinishda tashkillashtirish ham mumkin: ya’ni, har bir o‘quvchiga kichik axborot bilan chiqish qilishini topshirish yoki ikki-uch o‘quvchiga tahlil etilayotgan kitobning birmuncha muhimroq bo‘lgan bo‘limlari bo‘yicha ma‘ruzalar tayyorlashni buyurish. Ularning mazmuni va hajmini aniqlash hamda to‘g‘irlashlar kiritishi uchun yozma ravishda topshirishni talab qilish lozim.

Seminar mashg‘ulotlarida kursning «Soz», «Ansambl» kabi birmuncha muhim va murakkab mavzularni akademik va xalqchil uslubda kuylash usullarini chuqurroq ko‘rib chiqish, bu masalalarni ilmiy-uslubiy adabiyotda qay tarzda yoritilishini o‘rganish mumkin.

Nazorat mashg‘ulotlari yozma va og‘zaki shaklida o‘tkaziladi. Ularga mashg‘ulotning to‘liq vaqtini berilmaydi; agar topshiriqning hajmi katta

bo‘lmasa yarim soat ajratiladi. Keyingi paytlarda test uslubi keng tarqalgan. Bunda savolga bir necha javob variantlar beriladi va to‘g‘risini aniqlash lozim. Og‘zaki shakldagi nazorat mashg‘ulotida o‘tilgan mavzular bo‘yicha so‘rov o‘tkazib, o‘quvchining u yoki bu masalani so‘z bilan aniq va mantiqli ravishda yoritib bera olishini, shuningdek, amaliy malakalarни o‘zlashtirish (mashqlarni kuylash va chalish, xorlarni tahlil etish) darajasini tekshirish mumkin.

Guruuning davomati haftalik nazorat jarayonida ham aniqlab boriladi. Fan oxirida o‘quvchilar sinov nazoratini topshiradilar; bunda o‘qituvchi seminarlar, nazorat ishlari va uy vazifalarining baholarini jamlab baho qo‘yadi.

Umumiy yakun sifatida fan davlat attestatsiyasiga olib chiqiladi. Bu esa fanning kasbiy darajadagi xor dirijorlarini iayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir. Uning tarkibiga xorshunoslik, havaskorlik xorlari bilan ishslash metodikasi, shuningdek, musiqiy tarbiya metodikasi masalalari ham kiradi.

Davlat attestatsiyasidan oldin bir qator maslahatlar (konsultatsiyalar) o‘tkazilib, unda o‘quvchilar imtixonga olib chiqiladigan savollar bilan tanishtiriladi. Maslahatlar maqsadi — fanning negiz mavzularini takrorlash va chuqurlashtirishdan iboratdir.

#### Savollar va amaliy topshiriq

1. «Xorshunoslik va xor bilan ishslash» metodikasi fani nimani o‘rgatadi?
2. Bulajak xormeyster nimani bilish kerak?
3. Annotatsiya nima degani?
4. Tahlilni qaysi bo‘limi ansambl va soz masalalarini yoritib beradi?
5. Qaysi kitobda intonatsiya va soz masalalari batafsil yoritilgan?
6. Doiraviy soz («zonnii stroy») nima degani?
7. Xorshunoslik bo‘yicha birinchi kitob muallifi kim?
8. Xor bilan ishslashda subutlilik haqida gapirib bering.
9. «Xorshunoslik va xor bilan ishslash metodikasi» bo‘yicha bitta yarim yillikka kalendar reja tuzish, o‘qituvchi tanlagan adabiyotlarni konspektlash.

#### Adabiyotlar

1. Анисимов А. «Дирижёр-хормейстер» Музыка. Л., 1976
2. Виноградов К. «Работа над дикцией в хоре». Музыка. М., 1967.

3. Дмитревский Г. «Хороведение и управление хором» Элементарный курс. М., 1969
4. Краснощёков В. «Вопросы хороведения» М., 1969
5. Пигров К. «Руководство хором». М., 1964.
6. Соколов В. «Работа с хором» М. 1967.
7. Чесноков П. «Хор и управление им» М. 1952. 2-ое изд. 1961.
8. Шамина Л. «Работа с самодеятельным хоровым коллективом» М. 1988.
9. Sharafieva N. Xorshunoslik. T., 1987.
10. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. T., 1987.
11. Mansurova G. Xorshunoslik .T., 2008.

**«Xor adabiyoti» kursini o'qitish mātodikasi**

«Xor adabiyoti» kursi maxsus fanlar turkumidagi eng muhimlaridan biri.

Kursning maqsad va vazifalari – o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan xor repertuari xususidagi bilimlarini, umumiy va musiqiy dunyoqarashini kengaytirish, ularda badiiy didni tarbiyalash, xor musiqasining turli janr va usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Mazkur fan o'quv rejasi bo'yicha uch semestrga mo'ljalangan:  
IV semestrda – chet el xor adabiyoti;  
V semestrda – rus xor adabiyoti;  
VI semestrda – o'zbek xor adabiyoti o'rganiladi.

Xor adabiyoti kursi bo'yicha mashg'ulotlar ma'ruza va seminarlar shaklida o'tkaziladi. Vaqtning chegaralangani bois – ma'ruzadagi materialni juda qisqa va lo'nda bayon etish, mavzuning kompozitorlar xor yozuvini muhimliklariga bevosita dahldor bo'lgan bir muncha dolzarb masalalarini yoritish zarur.

Ma'ruza mazmuni - kompozitorlar xor ijodining janr va uslub muhimliklari tavsisi; xor asarlarining vokal- xor va ijrochilik tahvilidir.

Mazkur kursni olib borish jarayonida avvalroq musiqa adabiyoti fanida olgan bilimlarga tayanish zarur.

Ma'ruza tuzilishidagi muhimliklar – uni o'rganishning bosh ob'ekti – musiqa ma'lumotlariga bo'lgan boyligidir.

O'quvchilar xor asarlarini tinglayotganda albatta nota manbalari bo'lishi kerak. Eshitish va ko'rish taassurotlar birikmasi – o'quvchilar

bilimlarini sifatli o‘zlashtirish usuli. Mashg‘ulotlar shakllaridan biri – xor asarlarini, o‘qituvchining qisqacha sharhlari bilan eshitish.

O‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish metodi, yuqori sifat – majburiy shartlardandir. Ba’zan xor asarlari, ayniqsa jo‘rsiz xorlarni o‘quvchilar guruhiiga kuylatish foydalidir.

Fan ustida mustaqil ishlashning o‘sib boruvchi ahamiyati – o‘quv materialini muvaffaqiyatlil o‘zlashtirish zarur shartlardan sanaladi; ya’ni o‘quvchilar tomonidan maxsus adapbiyotning o‘qilishi, xor asarlarini tinglash va tahlil etilishidir.

Seminar mashg‘ulotlari. Mashg‘ulotning asosiy mazmuni – rejadan tashqari asarlarini tinglash va muhokama etish (kam tanilgan yoki so‘nggi vaqtarda yaratilgan). O‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tayyorlangan ma‘ruzalar bilan ularning chiqishlarini tashkil etuvchi seminar shaklidan foydalanish imkoniyati.

Nazorat mashg‘ulotlari. Nazorat mashg‘ulotlarining bir muncha maqsadga muvofiq shakli – bu xususan yirik bo‘lim so‘nggida yozma ravishdagi vazifalarni bajarishdan iboratdir. Nazorat topshiriqlarining mazmuni: kompozitor xor ijodining tavsifnomasi; xor asarlarini tahlil etish; xor asarlari nomini bevosita eshitib yoki audio yozuvdan tinglab aniqlash (o‘ziga xos diktant). Nazorat mashg‘ulotlarining turli xil shakllari mavjud: testlar, viktorinalar, krossvordlar va h. k.

Bilimlarni o‘zlashtirishdagi davomiy nazorat – o‘quvchilarni har bir mashg‘ulotda o‘tilgan mavzu bo‘yicha muntazam ravishda so‘roq qilish. Xor adapbiyoti bo‘yicha imtihonga tayyorlash, uni tashkil etish va o‘tkazish metodi. Biletlar mazmuni: birinchi savol – hajman yirik, batafsil va teran javobni talab etadi (masalan, kompozitor ijodiy tavsifnomasi), ikkinchi – nisbatan qisqa, aniq – xor asari tahlili, uchinchisi – asarni tinglab aniqlash. Fanning sinfdan tashqari ishlar shakli: xor kontsertlariga birlgalikda borish, xor jamoalarining radio va televidenie orqali chiqishlarini tinglash va uni xor adapbiyoti bo‘yicha darslarida yoki seminar mashg‘ulotlarida muhokama etish. O‘quv-metodik adapbiyot va qo‘llanmalar tavsifnomasi: ya’ni, darsliklar, ocherklar, xor adapbiyoti bo‘yicha xrestomatiyalar va xor asarlarini to‘plamlari shular jumlasidandir.

#### Savol va amaliy topshiriqlar

1. Xor musiqasini qanday janrlarini bilasiz?
2. Xor ijodiyotini turlarini aytинг?

3. Qaysi rus kompozitorining operasida bosh qahramon - xalq hisoblanadi?
4. O‘zbekiston kompozitorlaridan kim birinchi bo‘lib a kapella janriga asos solgan?
5. Uyg‘onish davrdagi niderland polifonik maktabiga mansub kompozitorlarini aytib bering?
6. «Xor adabiyoti» kursida qanaqa nazorat shakllari mavjud?
7. «Xor adabiyot» kursi bo‘yicha kalendar reja tuzish.
8. Kursning bitta mavzusiga ma’ruza yozish.
9. Metodik adabiyotlari bilan tanishish.

#### Adabiyotlar

1. Гудкова Е. Узбекская хоровая литература. Т., 1974.
2. Джумаева Л., Бахритдинова Н. Узбекская хоровая литература. Т., 1987.
3. Djumaea L. O‘zbek xor musiqasi tarixidan. T., 2000.
4. Дмитриевская К. Русская советская хоровая музыка. Вып.1, , М., 1974.
5. Локшин Д., Лаппо С. Зарубежная хоровая литература. вып.1,3. М., 1964, 1978.
6. Локшин Д. Зарубежная хоровая литература. Вып.2 . М., 1966.
7. Русская хоровая литература. Очерки. Ред.-сост. С. Попов. Вып. 1,2, М.:1963, 1969.
8. Усова И. Хоровая литература, М., 1976.
9. Хакимова А. Хор а капелла. Т., 1992.

#### «Musiqiylar tarbiya mātodikasi»

«Musiqiylar tarbiya metodikasi kursi» — maxsus musiqa kollejlari, akademik litseylardagi dirijor-xor bo‘limlarida va pedagogik institutlardagi musiqiy—pedagogik fakultetlarda asosiy yo‘naltiruvchi maxsus turkum fanlarida asosiy kasbiy yo‘naltiruvchi fandir.

Kursning maqsadi — umumita lim maktablari uchun malakali musiqa o‘qituvchisi va bolalar xor jamoalari uchun rahbarlar tayyorlashdan iborat. Fanning vazifasi — o‘quvchilar tomonidan musiqa darslarini o‘qitish, bolalar xor jamoalarini tashkil etish va ular bilan ishlash, ommaviy tadbirlar o‘tkazish(ko‘riklar, tanlovlari, festivallar,

xor qo'shiq bayramlari va h. k.)ning asosiy uslub va malakalarini egallashdan iborat.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida qo'yilgan maqsadlar va vazifalar amalga oshirilishi tufayli umumta'lim maktablarda o'quv-tarbiyaviy ishlarni yaxshilashtirishni zaruriyati muqarrar bo'ldi. Zamonaliviy maktabni rivojlantirishning etakchi g'oyasi bu ta'limni insonparvarlik, ma'naviy-axloqiy boyliklarni shakllantirish, estetik didni tarbiyalash, o'sib kelayotgan avlodda hayotga bo'lgan ijodiy va ma'suliyatli qarashlarni shakllantirishdir. Bu masalalarni echishda maktab ta'limining o'suvchan sharoiti va badiiy-estetik fanlarni o'qitish darajasining ko'tarilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston musiqa san'ati va madaniyatini o'rganish alohida o'rinn egallaydi.

Malakali musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunday mutaxassislar malakasi nafaqat ularning kasbiy darajadagi malaka va ko'nikmalari bilan, balki ish uslubini egallaganlik darajasi, bolalar qo'shiq repertuari, o'quv-metodik adabiyot, ko'rgazmali-illyustrativ materialni bilishi, o'qitishning texnik vositalarini qo'llay olishi bilan ham belgilanadi. Bularning barchasi esa fanning mazmunini tashkil etadi. Uning bosh maqsadi – o'quvchilar tomonidan musiqa o'qituvchisi va xor rahbariga uning amaliy faoliyatidagi boshlang'ich bosqichda zarur bo'lgan asosiy usullarni egallashdir. Boisi bu – pedagogik mahoratini kelajakda mustaqil ravishda takomillashtirish imkonini beradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida bu fan, o'zi tanlagan kasbga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, uni hurmat qilish kabi fazilatlarni tarbiyalash; o'quvchilarga muayyan kasbiy tayanchni bera olish, ularni o'qituvchining serqirra, u qadar engil bo'Imagan ammo faxriy va fidokorona mehnatga tayyorlashga mo'ljallanadi. «Musiqiylar tarbiya metodikasi» kursining mazmuni dastur bilan belgilanadi. 1985 yilgacha kuchda bo'lgan dastur bolalar xoriga rahbarlik qilish va kuylash darslari bo'yicha mavjud bo'lgan asosiy uslubiy masalalarni batatsil qamrab olgan edi. Ma'lum vaqtgacha u musiqiy tarbiya va savodning holati va talablariga javob bera olgan. 1985 yilda yangi dastur paydo bo'lib, o'zining tuzilishi va mazmuni bilan avvalgidan farq qildi. Uning asosiy bo'limi mashhur musiqa arbobi va kompozitor D.D.Kabalevskiy kontseptsiyasiga asoslanib, umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasiga bag'ishlanadi. Bu dastur ko'p yillar davomida Sobiq Ittifoq davlatlarida, shu respublikalarning o'z ona tillarida o'tildi.

Ba’zi milliy maktablar esa (masalan Boltiqbo‘yi) bu dastur bo‘yicha o‘qitishga umuman o‘tishmagan. D.D.Kabalevskiy asosiy tamoyil deb musiqani jonli san’at sifatida o‘rganishni nazarda tutgan va musiqaning asl qonuniyatlariga tayangan. Bu tamoyilni dasturda amalga oshirish uchta asos(kit)ga quriladi: «uch kit – qo’shiq, raqs, marsh - musiqaning uch asosiy sohasi». Maktablarda musiqa darslarini o‘qitishdan bo‘lak, sinfdan tashqari ishlar ham o‘zgaradi. Bu ayniqsa bolalar xoriga taalluqli edi. Xor studiyalari, xor maktablari, musiqa maktablarining xor bo‘limlari va umumta’lim maktablari negizidagi xor sinflari keng tarqaldi. O‘zbekistonda «Bulbulcha» bolalar katta xori (rahbar O‘zbekiston Xalq artisti Sh.Yormatov), hozirda u qo’shiq va raqs ansambl deb nomlanadi.

Bolalar musiqiy tarbiyasi va savodi sohasidagi tub o‘zgarishlar munosabati bilan o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida mazkur fan mazmuni va o‘qitish metodini qayta ko‘rib chiqish zarur bo‘lib qoldi.

O‘zbekistonda Davlat Standartlariga muvofiq holda (1999-y.) «Musiqa madaniyati» fani kiritildi va unga mo‘ljallangan o‘zbek tilida yangi dasturlar yaratildi. Ushbu dasturda musiqiy pedagogika va metodikani o‘qitishning yutuqlari AQSh, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarning zamonaviy musiqiy–badiiy pedagogikasi g‘oyalari hamda J.Dalkroza, K.Orf, Z.Kodai (relyativ tizim), D.Kabalevskiy larning musiqiy–pedagogik tizimlari o‘rganiladi. Shu kunga qadar joriy etilgan musiqiy pedagogika yutuqlari ham, D.Omonullaev, O.Ibragimov va boshqalarning ilmiy–uslubiy ishlanmalari ham hisobga olindi; shuningdek, pedagog–novatorlar tajribasi, ya’ni o‘quvchilarni bolalar xor studiyalarining ishlari va teatr studiyalari – «Bulbulcha» xori (rahbar – O‘zbekiston Xalq artisti Sh.Yormatov) va «Tomosha» bolalar teatri (rahbar – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi N.Qurbanova) misolida tanishtirish ham shular jumlasiga kiradi.

Musiqa bilim yurtlarida metodika kursini o‘qitayotgan o‘qituvchi bola organizmi fiziologiyasi, umumiy va yoshiga qarab pedagogik psixologiyasi, hamda pedagogika sohalarini bolalar musiqiy tarbiyasi masalalarini yoritishda qo‘l kelishi sabab muayyan darajada bilishi kerak. Vokal–xor malakalarini shakllantirish, asarni badiiy ijrosiga erishish, xor jamoasining har bir a’zosida shaxs sifatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘rilishi lozim. Bu holatlardan bo‘lajak xor dirijori amaliy faoliyatining har qanday yo‘nalishida keng foydalanishi mumkin va joizdir. «Umumta’lim maktablarida musiqani o‘qitish»ga bag‘ishlangan bo‘limni pedagogik amaliyotni olib boruvchi o‘qituvchiga

topshirgan ma'qul. Muhimi bunda o'qituvchi umumta'lim mактабида dars bera olishi va bu bo'limlarni, o'qитish jarayonida u nazariy ma'lumotlarni maktabdagi o'quv jarayonining (passiv amaliyat) jonli ko'rgazmasi bilan mutanosiblashtirishi kerak. Mashg'ulotlarni o'tkazish vaqtida pedagogik va metodik adabiyotga alohida a'tibor qaratish zarur. O'kuvchilarning mustaqil ishini shunday tashkillashtirish kerakki, unda o'quvchi butun kursni o'qish davomida (va albatta keyinchalik amaliy jarayonda) bolalarning musiqiy tarbiyasi va savodi xususidagi adabiyotlarni o'qib, konspektlar yozsin. O'quvchilarni bolalar musiqiy tarbiyasi xususida yaratilgan chet el metodikasi bilan tanishtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. «Musiqiy tarbiya metodikasi» kursida mashg'ulotning turli shakl va uslublaridan foydalaniлади: ya'ni, ma'ruzaviy, seminar, amaliy va nazorat.

O'qitishning asosiy metodi – ma'ruza – nazariy kursning bayonidir. Metodika kursi tarixiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan turli xil mavzularni o'z ichiga qamrab olgan. Ularning aksariyati ma'ruza-suhbatning sodda va tushunarli shaklida yoritiladi; ba'zi ma'ruzalar esa monologik bayonini talab qiladi. Bu mavzularning g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati juda muhimdir. Ma'ruzaviy mashg'ulotlar qatorida amaliy mashg'ulotlar ham katta o'rin tutadi. Ular nazariy bilimlar asosli tarzda o'zlashtirilgach, muayyan amaliy ko'nikmalarни ishlab chiqish uchun o'tkaziladi. Demak, musiqa darslarining rejasи bo'yicha o'rganilgan mavzudan so'ng amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Unda o'qituvchi rejalarining har xil turlarini tuzish tamoyillarini tushuntirib, ularning taxminiy chizmalarini taqdim etadi va birorta sinf misolidagi namunalarni beradi. Shundan so'ng o'quvchilar darsning reja-konseptini tuzishni mashq qilishadi – avval darsda, keyin uyda. Bu vazifani bajarishda ular mavzu materialini to'g'ri taqsim qila olishlari juda muhimdir. O'qituvchi barcha rejalarни batafsил tekshirib, har bir o'quvchining xatosini alohida ajratib ko'rsatadi. Amaliy mashg'ulotlarda bolalar repertuariga annotatsiya yozish, tinglab ko'rish uchun tarlangan musiqiy asarlarni ko'rsatish va qo'shiqlarni o'rganishga mo'ljallangan metodik ishlanmalarni tuzish mumkin.

Mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi quyidagicha belgilangan. Dastlab o'qituvchining o'zi asarga annotatsiya beradi, keyin esa bu vazifani o'quvchilar mustaqil ravishda bajaradilar. O'qituvchi avvaldan annotatsiyaning taxminiy rejasini beradi. U quyidagi bandlardan iborat bo'lishi mumkin:

- ko'shiq mualliflari (kompozitor va shoir) haqida qisqacha ma'lumot;
- qo'shiqning xususiyati;
- lad va tonallik tuzilishi;
- sur'at, o'lchov va dinamika;
- kuy tuzilmasining muhimliklari;
- garmonik tuzilma muhimliklari;
- ovoz yo'nalishi muhimliklari (agar qo'shiq ikki-uch ovozli bo'lsa);
- tovush yo'nalishining xususiyati;
- nafas va talaffuz muhimliklari;
- qo'shiqda uchraydigan murakkabliklar (intonatsion, ansambl jihatdan).

Tekshirish uchun ikki-uch o'quvchi chaqiriladi va ular o'zлari yozgan annotatsiyalarni o'qiydilar. Qolganlar esa ularni muhokama qilib, to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritadilar. Shundan so'ng o'qituvchi uyga vazifa beradi; u yakka tarzda bo'ladi, ya'ni har bir o'quvchiga tahlil uchun alohida qo'shiq beriladi. Yozma ish uchun baho qo'ygan ma'qul, chunki bu o'quvchiga ma'naviy rag'bat bo'ladi. Baholaganda, tashqi bezatilishi («puxtalik bilan», «pala-partish») va vaqtida bajarilishi hisobga olinadi.

Amaliy mashg'ulot turlaridan biri — bu musiqa darslari uchun turli xil ko'rgazmali qurollar yasashdir. Muhimi ular nihoyatda chiroyli bezatilgan bo'lishi kerak; ya'ni yorqin, ko'zga tashlanadigan, e'tiborni tortadigan, rangli ko'rinishlarda. Bu vazifa uyda bajariladi. U kompozitorlar hayoti va ijodi haqidagi fotomontaj, cholg'ular tasvirlangan chizma-plakatlar, mashhur musavvirlarning reproduksi-yalar albomi bo'lishi mumkin. Bu ko'rgazmali qurollar o'quvchiga u yoki bu musiqiy asarni yaxshiroq his etishga, tushunib etishga yordam berib, zarur hissiy holatni yaratadi. Musiqiy savod bo'yicha turli xil mashqlarni ishlamoq, notadan kuylanuvchi misollar, rebuslar, topishmoqlar, sharadalalar, «notalar cho'zimi», «tovushqator», «takt va takt chizig'i» kabi mavzular uchun plakat-jadvallar yasash.

Amaliy mashg'ulot shakllaridan biri — bolalarning musiqiy qobiliyatini tekshirib, uni yozma ravishda qayd etishdir. O'qituvchi tekshirish uslubini ko'rsatadi va tushuntiradi, tinglash qobiliyati, ritm, musiqiy xotira va ovozni anaqlovchi mashqlar namunasini beradi. Tekshirish natijalari qayd etilgan chizma-shaklni taqdim etadi:

Familiyasi, ismi	Yoshi	Sinfı	Tinglash qobiliyati	Musiqiy xotirasi	Ritm	Ovoz (1-2)	Qaydlar uchun
------------------	-------	-------	---------------------	------------------	------	------------	---------------

Maktab darslarida muhim bo‘lim hisoblangan bolalar xorini kuylashga tayyorlovchi mashq ko‘nikmalarini egallash – amaliy mashg‘ulotning eng foydali turidir. O‘qituvchi kuylashga tayyorlovchi mashqlar turlari xususida nazariy ma’lumot beribgina qolmay, ularning ijro ko‘nikmalarini ham jalg etishi lozim. Birinchi navbatda o‘quvchilarga vokal-xor jarangining (nafas, tovushhosilasi, talaffuz, soz, ansambl) alohida unsurlari ustida ishlash uchun bir nechta mashqlarni yozib olish tavsiya etiladi. So‘ngra esa ularni uch- to‘rt turli tabiatdagi mashqlardan iborat majmualarga birlashtiriladi, ular musiqa darslarida va xor to‘garaklarida kuylashga tayyorlashda ishlatalidi . Kichik, o‘rta, katta yoshdagи bolalar guruhlari uchun mashqlar va mashqlar majmuasi mavjud. O‘quvchilar mashqlarni uyda o‘rganib (mos keluvchi garmoniya bilan) so‘ngra amaliy mashg‘ulot o‘tkazadilar.

Amaliy mashg‘ulotlarning keng tarqalgan shakli praktikum bo‘lib – musiqa darslarini taqlid qilish: o‘quvchilarning bir guruhi shartli ravishda umumta‘lim maktabining sinfi sifatida, o‘quvchilardan biri esa darsni o‘tkazuvchi o‘qituvchi sifatida ish yuritadi. O‘qituvchi uni o‘tkazish rejasini metodik ishlanmani tuzishda yordam beradi va «o‘qituvchi»ning tayyorgarlik darajasini tekshiradi. Bu kabi mashg‘ulotlar o‘quvchini maktabda mustaqil amaliy mashg‘ulot o‘tkazishi uchun yaxshi tayyorgarlik bo‘ladi.

Metodika kursini o‘tkazishda seminar mashg‘ulotlari ham muhim o‘rin tutadi. Ularning asosiy maqsadi – uslubiy adabiyot va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, shuningdek, kitoblarda etarlicha yoritilmagan eng muhim kurs mavzularini o‘rganishdan iboratdir.

Seminar mashg‘ulotlarida jiddiy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularini ko‘rib chiqish foydalidir: ya‘ni, «Musiqqa o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak?», «Tarbiyalovchi ta’lim tamoyili musiqa darslarida qanday amalga oshirilmoqda?» Seminarlarning muzokarali shakli muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning bilimlarini tekshirish uchun nazorat mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Ularning mazmuni va tuzilishi turlicha. Bunda bilimlarni

nazariy jihatdan o'zlashtirilganligi va amaliy ko'nikmalarни egallaganlik darajasi tekshiriladi; ya'ni, xorni mashq qildira bilish, o'quvchilarни musiqiy qobiliyatini aniqlash, qo'shiq repertuariga annotatsiya berish va h. k. Uy vazifalari ham nazorat ishi bo'lishi mumkin (dars rejasini tuzish, xor mashg'ulotlari va xor uchun tuzilgan kontsert dasturlarining repetitsiyalari, xrestomatiyalar, qo'shiqlar to'plamlariga annotatsiyalar yozish). Nazorat shakllaridan biri – bu individual tarzda o'tkaziladigan o'qilgan adabiyot bo'yicha suhbat. O'qituvchi nazorat ishining har bir turi uchun baho yoki ball qo'yadi. Bu esa o'quvchi bilimini imtihonda xolis va to'g'ri baholanishiga zamin yaratadi.

O'rta maxsus musiqa ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan Davlat attestatsiyasi bir vaqtning o'zida ikkita fan bo'yicha o'tkaziladi – bu «Musiqiy tarbiya metodikasi» va «Xor bilan ishlash metodikasi». Shu bois ham bu fanlardan umumiy biletlar tuziladi va ularda uchtdan savollar bo'lishi lozim: birinchisi – musiqiy tarbiya metodikasi bo'yicha, ikkinchisi – havaskorlik xori bilan ishlash metodikasi va uchinchisi – mакtab repertuari yoki havaskorlik xori uchun atalgan asarni tahlil etish va unga annotatsiya berishdan iborat. Biletlarni shu fanlarni olib boruvchi o'qituvchilar bирgalikda tuzishadi. Metodika kursini olib boruvchi o'qituvchining bir o'zi barcha zarur amaliy ko'nikmalarни o'quvchilarga bera olishga qodir emas. Faqat fanlarning o'zaro bog'liqligini amalga tatbiq etib, ya'ni, dirijorlik, xor partituralarini o'qish, vokal va fortepiano kabi fanlar o'qituvchilarining kuchini birlashtirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. III kursda metodika fani o'qituvchisi o'quvchilarga Davlat attestatsiyasi uchun asarlar ro'yxatini beradi. Bu asarlarni o'quvchilar yaxshi bilishlari kerak (xor kuylash bo'yicha taxminan 14-ta asar, musiqa tinglash bo'yicha ham deyarli shuncha).

### Savol va amaliy topshiriqlar

1. Maktabdagи musiqa o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?
2. Praktikumni maqsadi nimada?
3. Qanday chet el bolalar musiqa tarbiyasini metodikalarini bilasiz?
4. Harbir darsga reja nima degani?
5. Bolalar xori uchun qo'shiqga annotatsiya tuzish.
6. Metodik adabiyotni konspektlash.

## Adabiyotlar

1. Бахритдинова Н. Ўзбекистон болалар хор маданияти. Т., 2002.
2. Гудкова Е., Васильева А. Ашула дарси методикаси. Т., 1963.
3. Малинина Е. Вокальное воспитание детей Л., 1967.
5. Медынъ Я. Методика преподавания дирижёрско-хоровых дисциплин. М., 1978.
5. Стулова Г. Хоровой класс. М., 1988.
6. Халабузарь П., Попов В., Добровольская Н. Методика музыкального воспитания. М., 1990.
7. Шамина Л. Работа с самодеятельным хоровым коллективом. М., 1988.
8. Xo'jayeva M. Umumta'lism mакtablarida musiqa o'qitish metodikasi. T., 2007.

### Umumta'lism mакtablarida amaliyot o'tish metodikasi

Xor dirijorligi bo'limida o'quv rejasiga muvofiq ravishda bo'lajak o'qituvchi—musiqachilarni mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlashga qodir bo'lgan maxsus fanlar turkumi orasida mакtab amaliyotiga katta o'rinn ajratiladi.

Mакtab amaliyotining asosiy vazifalari:

bo'lajak mutaxassisda g'oyaviylik, irodalilik va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga qodir bo'lish;

dirijorlik, fortepiano, musiqiy-nazariy fanlar (musiqa tarixi, garmoniya, solfedjio), pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi kabi fanlarda olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy ishda qo'llashga o'rgatish;

bo'lajak amaliy ishlarga birmuncha yaqin bo'lgan sharoitlarda amaliy ish ko'nikmalarini jalg etish;

pedagogik faoliyatga ijodiy yondoshishga o'rgatish va o'qitish jarayonida bolalar va o'smirlar musiqiy tarbiyasining nazariysi va amaliyoti sohasida erishilgan yangi yutuqlardan foydalanishi.

Mакtab amaliyoti «Musiqiy tarbiya metodikasi» kabi nazariy kurs bilan uzviy bog'langan holda o'tilishi lozim. Metodika kursida olingen bilimlarni bo'lajak o'qituvchilar pedagogik jarayon davomida kuzatishlari, shuningdek, mustaqil tarzda dars o'tayotganlarida mustahkamlab borishlari lozim.

## Amaliyotni tashkillashtirish

Xor dirijorligi bo‘limi o‘quvchilar uchun məktəb amaliyoti III va IV semestrlerda, umumta’lim məktəbida təşkil etilədi. Unda məktəb o‘quvchilarining müsiqə dərsi və darsdan təşqəri estetik tarbiyasi uchun zərur bo‘lgan şart-sharoitlar yaradıb berilgən. Amma shunday bo‘lsada, III semestrden boshlab amaliyot o‘qituvchisi o‘quvchilar uchun passiv (amaliyotning birinchi təyyorgarlıq bosqichi) amaliyotni təşkil etsa maqsadga müvofiq bo‘ladi. Bu jərayonda o‘quvchi o‘qituvchi rəhbərliyi ostida umumta’lim məktəbidəgi o‘quv-tarbiyaviy ishlər, o‘quv hujjatları (kalendər-mavzı rejələri, sinif jurnalları və h.k.), o‘quv qo‘llanmalari, o‘qitishning texnik vəsitaları və b.ning təshkilləşdirilgənlili bilan tanışlığı; türli sinfların müsiqə dərsləridə, sinfdan təşqəri bo‘lgan müsiqiyə tədbirlərda qatışlığı, təjribəli o‘qituvchilar ishinə kuzatıb, kundalık daftarıga qayd etib boradı (1-ilova).

IV cemestrgə kelib etərli metodik təyyorgarlıq və kuzatuv təjribəsiiga ega bo‘lgan o‘quvchilar endilikdə fəol amaliyot, ya’ni dərslərni müstəqil rəvəşdə o‘tışlıları lozim. Fəol amaliyot o‘tkazishni o‘quvchi-amaliyotçı asta-sekin uning alohida təurlarını o‘tış bilən (qo‘sinqni o‘rgatış, suhbat o‘tqazış, müsiqə tinglash və h.k.) boshlashı mümkün. Birinchi semestrning 5-chi haftasından boshlab amaliyotçı müstəqil rəvəşdə haftada bir marta dars o‘tkazadı; shuningdek, sinfdan təşqəri tədbirlərinə təşkil etdi; zərur hujjatlaşdırış ishlərini olib boradı (1, 2-ilovalar).

Müsiqə dərsləri forte-piano, nota chizig‘i bor doska, audio və videotexnik vəsitalar, slaydlar, foto və nota materialı mavjud bo‘lgan, jihozlangan xonada o‘tkazıldı.

## Amaliyotning mazmuni

Məktəb amaliyoti bo‘yicha mashğ‘ulotlar mazmuni umuta’lim məktəbləri uchun tuzilgən dəstur bo‘yicha belgilənədi. Təyyorgarlıq davri uch bosqichdan iborat; təhliliy- amaliy, təhliliy-qayta tiklovchi və təhliliy- baholash.

Təhliliy-amaliy bosqichda (birinchi-ikkinchi hafta) amaliyotçular müsiqə o‘qituvchilarining dərslərini kuzatıb, yozib boradılar; o‘qituvchi tomonidan qo‘ylgan o‘quv-tarbiya vazifalarını aniqlayıdılar; darsda o‘quvchiların diqqatını jamlash usullarını, bilim və ko‘nikmalarını o‘zlashtırganligini nazorat qılış shakllarını kuzatıb boradılar.

Tahliliy-qayta tiklash bosqichida (ikkinchchi-uchinchchi hafta) o‘qituvchi tomonidan darsda qo‘yilgan vazifalar echimi jarayoni kuzatiladi.

Tahliliy-baholash bosqichida (to‘rtinchi hafta) sinfning muhimliklari, ya’ni bolalarning musiqa darsiga, musiqiy faoliyatning har xil turlariga bo‘lgan munosabati aniqlanadi; sinf o‘quvchilarining hissiy va intellektual rivojlanishi darajasi, ularning musiqiy va ijrochilik qobiliyatlari baholanadi; o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga kelgan munosabatlar tavsiflanadi.

Kuzatuv amaliyoti o‘quvchi-amaliyotchi oldida turli xil o‘quv materiali bilan ishlash muhimliklarini ochib beradi. Amaliyotchilar o‘qituvchi va o‘quvchilar ishini diqqat bilan kuzatadilar, o‘z kundaliklariga qaydlar yozib, metodik o‘qitish kursida olgan bilimlaridan foydalangan holda, ishning tavsija etilgan shakllari va dasturning metodik qurilmasiga muvofiq ravishda dars olib borishni o‘rganadilar.

Amaliyotning asosiy davrini o‘tish uchun o‘quvchilar muayyan sinflarga biriktiriladilar: 2-kurs o‘quvchilari kichik sinflarga, 3-kurs o‘quvchilari o‘rtacha sinflarga. Amaliyotchilarni mustaqil dars o‘tish va sinfdan tashqari tadbirlarni o‘tkazishga tayyorlash jarayoni: mashg‘ulot mazmunini tashkil etuvchi materialni tavsija etilgan adabiyot va o‘quv qo‘llanmalari bo‘yicha o‘rganishni rejalashtirish; shuningdek, darsda tinglash yoki o‘rganish uchun o‘quvchilarga taqdim qilinadigan asarni avvaldan tahlil qilish va musiqiy materialni chalib berishni o‘z ichiga oladi.

